

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
«MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI» kafedrası

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Maxsus sirtqi bo`lim dekani

« ____ » _____ 200__ yil

5141700 «Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti» yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun
«MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKALOGIK TARBIYA
BERISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI» mavzusida
bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Haydarova Zulfiya

Ishni himoyaga tavsiya

etaman ilmiy raxbar: M.Yuldasheva

Ilmiy maslahatchi: prof.X.Meliyev

BMI «Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi» kafedrasining yig'ilishining qarori bilan (Qaror № _____ 2010 yil) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri v/b: _____ G.Qo'shaqova

JIZZAX – 2010

M U N D A R I J A:

Kirish

1. BOB. O'SIB KELAYOTGAN BARKAMOL AVLODGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING DOLZARB MASALALARI

- 1.1. Sharq va G`arb mutafakkirlarining bola tarbiyasida tabiatning o`rni haqidagi fikrlari
- 1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish mazmuni va amaldagi ahvoli

2. BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASI MUHIM OMIL SIFATIDA

- 2.1. Xalq pedagogikasi tarbiya vositasi sifatida
- 2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashda xalq pedagogikasidan foydalanish
- 2.3. Tayyorlov guruhida mashg`ulotlar orqali ekologik tarbiya berish shakllari.
- 2.4. Tajriba –sinov ishlari tahlili

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

KIRISH

Tabiat — bitmas tujanmas xazinadir. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi.

Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yorug'lik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi.

Jonli tabiatdagi barcha mavjudonlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tujanmas manbaidir.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Bugungi kunda ekologiya fani tushunchasi har bir kishining ongiga singib bormoqda. Deyarli har kuni gazeta sahifalarida, radio va oynaijahon ko'rsatuvlarida hozirgi sharoitdagi ekologik muammolar hamda ularni hal etish borasida olib borilayotgan sa'yi-harakatlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Ekologiya tushunchasi yunoncha so'z bo'lib, «eko» — uy, makon va «logos» — fan degan ma'noni bildiradi. Tabiiy uyimizni o'rganish deganda, albatta, undagi barcha tirik organizmlar va jarayonlarni o'rganish, ya'ni ushbu uyni yoki maskanni hayot uchun yaroqli holda saqlash kabi masalalar tushunilishi kerak. Ekologiya fani ham biologiya, geografiya fanlari singari mustaqil fan hisoblanadi. (u tirik organizmlarning yashash sharoiti va ularni o'zi yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabatlari hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarni o'rganadi. Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo'lib 1866yilda nemis biolog E.Gekkel tomonidan kiritilgan.

Populyatsiyalar, turlar, biotsenozlar, biogeotsenozlar va biosfera kabi tushunchalar ekologiya fanining manbai hisoblanadi. Shuning uchun umumiy ekologiya to'rt bo'limga bo'lib o'rganiladi: *autekologiya*, *populyatsiyalar ekologiyasi*, *sinekologiya* va *biosfera*.

1. *Autekologiya* («autos» — yunoncha so'z bo'lib, «o'zi» degan ma'noni bildiradi) ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatini, ularning qanday muhitga ko'proq va uzviy moslashganligini o'rganadi.

2. *Populyatsiyalar ekologiyasi* («papulyason» — fransuzcha so'z bo'lib, «aholi» degan ma'noni bildiradi) populyatsiyalar tuzilmasi va dinamikasini, ma'lum sharoitda turli organizmlar sonining o'zgarish (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.

3. *Sinekologiya* («sin» — yunoncha so'z bo'lib, uning ma'nosi «birlikda» demakdir) biogeotsenozlarning tuzilishi va xossalarini, ayrim o'simlik va hayvon turlarini o'zaro aloqasini hamda ularni tashqi muhit bilan munosabatini o'rganadi.

4. Ekotizmlarning tadqiq qilishning rivojlanishi *biosfera* haqidagi ta'limotni vujudga keltiradi.

Bugungi kunga kelib ekologiya fani aniq biologik fanlar tizimidan chiqib, atrof-muhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida o'ta kengayib ketdi. Fanga «inson ekologiyasi» degan atama ham kirib keldi.

Insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. 1921 yilda amerikalik olimlar Bortes va Park tomonidan «Inson ekologiyasi» degan yangi fan kiritildi.

Dastlab, inson ekologiyasiga tabiiy soha bo'limi sifatida qaralib, keyinchalik lining ijtimoiy, texnik, me'moriy-iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o'rganildi. Inson ekologiyasi insonning atrof-muhitga va aksincha, atrof-muhitning insonga ta'sirini o'rganadi. Inson ekologiyasini o'rganish natijasida ijtimoiy ekologiya vujudga keladi. Unga birinchi bo'lib Raderik Mak Kenzil ta'rif bergan.

Bashariyat orzusi bo'lmish barkamol avlodni tarbiyalash koinot atalmish ulkan ekologik tizimning xatosiz ishlashiga ma'lum bir ma'noda bog'liqdir. Prezident I.A.Karimov ekologiya masalasiga alohida to'xtalib, «Ekologiya har bir fuqaroning va oilaning maxsus e'tibor zonasiga aylanishi zarur», deb ta'kidlashi ham bejiz emas.

Xalqimizning «Sog' tanda –sog'lom aql», degan naqli asrlar davomida avloddan –avlodga o'tib kelmoqda, chunki atrof –muhit tozaligi, tabiat sofliqi, go'zalligi, boyligi insonning go'dakligidanoq sog'lom, jismonan baquvvat, aqlan yetuk bo'lib o'sishida muhim ahamiyatga ega.

Tabiatning rang-barangligi foydaligi va zararli tomonlarini tanishtirib borish bilan birga uni asrab avaylash, rivojlantirish boyitish lozimligini, buning uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni va mehnat qilishimiz lozimligini ta'kidlaymiz.

Ekologik tarbiya asosan tabiat haqidagi tasavvurni shakllantirish orqali tabiat bilan tanishtirish mehnat mashg'ulotlarida berib boriladi. «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturida berilgan mavzularga qo'shimcha qilib, o'lkamizga xos jonli va jonsiz tabiat, o'simliklar va xayvonot dunyosi xaqida tasavvurlar

shakllantirib boriladi. Bogchalarda ekologik ta'lim bo'yicha olib borilayotgan ishlar birinchi kichik guruhdan boshlanadi. Bu bosqichda bolalarni tabiat bilan tanishtirish jonli mavjudodlarga qiziqtirish hamda ularga nisbatan ehtiyoqkorona munosabatni, ularni parvarish qilishda kattalarga yordam berishni o'rgatishdan iborat. Bolalarni o'simlik va xayvonot dunyosidagi ayrim xodisalar bilan tanishtiriladi. Bolalar bog'chasi uchastkasida bolalarda tabiat xodisalarini (yomgir yoki qor yogayotgani, quyosh nur sochayotgani, shamol esayotgani) ko'katlar, daraxtlar va ularning farklovchi belgilarini (ko'kat-past, ko'k daraxt-baland, uning barglari ko'p) ko'rish va aytishni o'rgatamiz.

Maydonchaga uchib keluvchi qushlar bilan, ularni xatti xarakterlarining ayrim xususiyatlari bilan (uchadi, daraxtga ko'nadi, cho'qiydi, tovush chiqaradi) tanishtiramiz.

Tabiat burchagida bolalarga xona usimliklari, kafasdagi kushchalarni kursatib, ularning nomini aytishni, usimliklarga suv kuyish, kushchalarga ozuka va suv berish ularni parvarish kilishni uktiramiz.

Tadqiqot ishimizning mavzusini «Tayyorlov guruxi bolalariga ekologik tarbiya berish yullari» deb nomladik.

Tadqiqot maqsadi: xalq pedagogikasi asosida tayyorlov guruhi bolalariga ekologik tarbiya berishning shakl va vositalari, tayyorlov guruhida mashg'ulotlar orqali ekologik tarbiya berish shakllari.

Tadqiqot vazifalari:

- bolalarni tarbiyalashda ekologik tarbiyaning ahamiyati.
- ekologik tarbiyaning pedagogik asoslari.
- tayyorlov guruhida mashg'ulotlar orqali ekologik tarbiya berish shakllari.

Tadqiqot ob'yekti:

Tayyorlov guruhi bolalariga ekologik tarbiya berish usullari.

Tadqiqot predmeti: maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Ilmiy tadqiqot davomida berilgan nazariy bilim va amaliy materiallardan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari, kasb hunar kollej va oliy ukuv yurti talabalari amaliy faoliyatda foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning metodologik asoslari

Tadqiqotda Prezident I.A.Karimov asarlari, G`arb olimlari va Sharq mutafakkirlarining tabiat va ekologik tarbiya haqidagi fikrlari, maktabgacha ta'lim davlat talablari, pedagogik- psixologik nazariyalar tadqiqotning metodologik asosi hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan metodlar:

- Kuzatish
- Anketa
- So'rov
- Matematik tahlil metodlaridan foydalanildi

Himoyaga tavsiya etiladigan qaydlar.

Ishda tayyorlov guruhida mashg`ulotlar tabiat burchagi orqali ekologik tarbiya berish shakllarini ishlab chiqildi.

1. BOB O'SIB KELAYOTGAN BARKAMOL AVLODGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH DOLZARB MASALA

1.1. Sharq va G`arb mutafakkirlarining bola tarbiyasida tabiatning o`rni haqidagi fikrlari

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Buyuk alloma **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783-850) risolalaridan birida bunday deb yozadi: «Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar!» Daryoning «yoshli ko'zlari» deganda Muhammad Muso alXorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning «bir-birlarini tushunishlari», o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan. 847 yilda Muhammad al-Xorazmiy «Kitob sur'at alarz» nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar, ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, Yerning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

Abu Nasr Forobiy. O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy falsafiy fikrlarining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (873-950) ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to'liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro'yxatida Farobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltirilgan.

Farobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, uning «Kitob alhajm va almiqdor», «Kitob almabodi alinsonia» («Insoniyatning boshlanishi

haqida kitob»). «Kitob ala'zo alhayvon» («Hayvon a'zolari to'g'risida kitob») nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi.

Tabiatshunoslikka oid «Odam a'zolarining tuzilishi», «Hayvon a'zolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to'xtab o'tilgan.

Odam a'zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Farobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. Shuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo ko'payishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan:

«Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsada, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilqning o'sishiga sharoit boimay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordiyu yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar».

Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, «Saydana», «Minerologiya», «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o'simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan.

Beruniy yer yuzining o'zgarishi o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kavlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin. Buning sababi, **bu** qumlar qachonlardir okean tubi bo'lgan, deb ta'kidlaydi alloma.

Beruniy «Saydana» degan asarida 1116 hil dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston» asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Beruniy o'zining tabiiy ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta'sir etuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) yirik qomusiy olim sifatida tanilgan. Uning 450 ta asari mavjud bo'lib, bizgacha 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» shox asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho'qqisi bo'lib hisoblanadi.

Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur «Kitob ash-shifo», ya'ni «Davolash kitobi» asarida bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Ibn Sinoning tog'larning vujudga kelishi, yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning bo'lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530). Bobur nafaqat shoir balki podsho, ovchi, tarixchi, bog'bon va tabiatshunos bo'lgan. «Boburnoma» asarida Bobur o'zi ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylari tabiati, boyligi, urf-odati, hayvonoti, o'simliklarini tasvirlagan. Asarda yer, suv, havoga tegishli xalq so'zlari ko'plab uchraydi.

Bobur o'z asarida joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, o'simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O'rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug'doy, o'rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida ta'kidlagan.

Asarda Bobur borgan joylarining tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini Andijon bilan taqqoslagan, hamda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xuroson va Hindistondagi hayvonot dunyosi haqida batafsil bayon etib bergan.

Chexiyalik mashhur pedagog **Ya.A.Komenskiy** bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin olgan. U o'zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag'ishlagan.

Uning fikricha, inson tabiatning eng go'zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. O'zining «Buyuk didaktika», «Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Tinchlik farishtasi» kabi asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan.

Ya.A.Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o'xshatgan.

«Onalar maktabi» xushbo'y o'simliklar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi.

«Ona tili» maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o'xshaydi.

«Gimnaziya»da dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni y'g'ib, uni «aql xazinasi»ga joylayotgan kuz faslini eslatadi.

Va nihoyat, «Akademiya» yig'ilgan hosilni umrbo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan kishiga o'xshatiladi.

Ya.A. Komenskiy «Onalar maktabi»da 18 ta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:

—suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq kabilarni;

—yorug'lik va qorong'ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;

—o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodiy, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.

Ya.A.Komenskiy hamma narsani tabiatga bog'lab tushuntirgan. U o'quvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, mazmunini to'liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog'ning turli manzaralaridan namuna olishdir.

Masalan, nega endi 1 sinf uchun bitilgan kitobni «Gunafsha jo'yagi», 2 sinf kitobini — «Atirgul tupi», 3 sinf kitobini — «Istirohat bog'i» va hokazo deb nomlash mumkin emas?

Ya.A.Komenskiy bolalarni tarbiyalashda tabiatning ahamiyatini o'zining boshqa asarlarida ham ochib bergan.

I.G.Pestalossi 1746 yilda shveytsariyalik shifokor oilasida tug'ilgan. U o'z zamonasining mashhur pedagogi bo'lgan. Uning fikrlari haligacha pedagogika sohasida qo'llanib kelinadi. U «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi», «Kuzatish a'ifbosi», «Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim», «Oqqush qo'shig'i» kabi asarlarni yaratdi. I.G.Pestalossining fikricha, bolaga berilayotgan tarbiya tabiat bilan uyg'un boiishi kerak. U Ya.A.Komenskiy, Jan Jak Russolarning ushbu g'oyasiga amal qildi:

«Insoniy kuchlarning o'sishi uchun tabiat qilayotgan harakatga yordam berilmasa, bu harakatlar odamlarni hayvoniy-hissiy xususiyatlardan sekinlik bilan qutqaradi. To'g'ri, tarbiya esa ularni, ya'ni barcha insoniy kuchlarni o'stirishga yordam beradi».

I.G. Pestalossi bolalarning aqliy kamolotini o'stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg'a suradi:

1. Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi.
2. Oddiydan murakkabga yo'naltirish.
3. Bolaning kuch va qobiliyatiga moslashtirish.
4. Ko'rsatmalilik.

I.G.Pestalossi boshlang'ich ta'lim xususiy metodikasining asosini yaratdi. Bunda u ona tili, hisob, geografiya, o'lkashunoslik fanlaridan elementar ta'lim berish mazmunini asoslab berdi va bola tilini boyitish uchun geografiya, tibbiyot fanlarining ham uzviy ravishda olib borilishini tavsiya etgan edi.

I.G.Pestalossi dunyo pedagogika fanining taraqqiyotiga katta hissa qo'shib, o'z asarlari bilan o'ziga haykal yaratgan olimdir.

Rus milliy pedagogikasining asoschisi **K.D.Ushinskiy** 1824 yili Rossiyaning Tula shaxrida tug'ilgan. U «Bolalar dunyosi», «Ona tili», «Muallimlar uchun qo'llanma» asarlarini yozgan.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktabdagi ta'lim mazmunini asoslab berish bilan birga undagi qonun-qoida, tartib, metod va vositalarini ham ishlab chiqib, didaktika

faniga katta hissa qo'shdi. Bu esa ajoyib yangilik sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. U eng avvalo o'qitishni bolalar mehnati bilan bog'lashni tavsiya qildi.

K.D.Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta'limtarbiyani o'rganib, o'zining «Pedagogik adabiyotning foydasi», «Boshlang'ich ta'lim metodikasi» hamda «Ona so'zi» asarlarini yozdi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalalari bilan juda ko'p pedagog-olimlar shug'ullanganlar:

S.A.Veretenikova «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi» kitobida, har bir yosh guruhidagi bolalarni yil fasllariga qarab tabiat bilan tanishtirish metodini asoslab bergan.

P.G.Samorukova tahriri ostidagi «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish o'quv qo'llanmasida tabiat bilan tanishtirish metodlari, vositalari va usullari, ish shakllari, bolalar bog'chasi hovlisidagi tabiat burchagini tashkil etish masalalari keng yoritilib berilgan.

M.M.Markovskaya «Bolalar bog'chasida tabiat burchagi» kitobida, tabiat burchagini tashkil etishning shart-sharoitlari, undagi xona o'simliklari, hayvonlar, tabiat burchagidagi mavsumiy ishlar, bolalarni tabiat burchagidagi hayvonlar bilan tanishtirish yo'llarini ko'rsatib bergan.

A.G.Grigoryans, U.B.G'ofurovalarning «Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya» nomli qo'llanmalarida ekologik tarbiya berish metodlari, yo'llarini misollar orqali yoritib, shuningdek, bolalarda oddiy izlanuvchanlik faoliyatini tarbiyalashning yollari haqida qimmatli maslahatlar berishgan.

1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish mazmuni va amaldagi ahvoli

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari shu talablar asosida tuzilgan «Uchinchi ming-yillikning bolasi» tayanch dasturi (2000y) asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturning «Bolalarni jismoniy rivojlantirish», «Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish», «Ma'naviy-madaniy yetuklik» bo'limlarida o'z aksini topgan.

Dastur bolalarning yoshi, psixologik hamda fiziologik xususiyatlariga mos ravishda aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik ta'lim-tarbiya berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan. Bu vazifani hal etishda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «Sog'lom avlod» davlat dasturi tayanch bo'la oladi. «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturi yetti yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasini o'z ichiga olib, ta'lim va tarbiyaning ma'lum qirralarini bog'chada singdirishni rivojlantiradi.

Dasturning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

—bolalarda ilk yosh guruhdan o'simlik va hayvonlarga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularni jonivorlarga mehr bilan munosabatda bo'lishga odatlantirish, suv va undan foydalanish, yomg'ir va qor, issiq va sovuq havo haqida tasavvurlar hosil qilish;

—2—3 yosh davrdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda Quyosh va Oy haqida tasavvur hosil qilish, tirik jonivordan mushuk, kuchuk, jo'ja, akvariumdagi baliqlar, qafasdagi qushlarni kuzatish, ularning nomini aytish, harakatini ko'rsatishga o'rgatish;

—daraxt, gul, o't-o'lanlarni farqlashga o'rgatish. Diqqatlarini xonada o'stiriladigan gullarning go'zalligiga jalb qilish, ularni sug'orib turish zarurligini tushuntirish, nomlari tanish bo'lgan sabzavot va mevalarni farqlashga o'rgatish, o'simliklarni ehtiyot qilishga odatlantirish.

— 3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya haqida dastlabki tushunchalarni berish: ayrim meva va sabzavotlar (olma, uzum, o'rik, olcha, gilos, qovun, tarvuz, karam, sabzi, voz' pomidor kabi), gullaydigan o'simlik va daraxtlar (lola, atirgul, olma, o'rik kabi) bilan tanishtirish, ularning nomi va rangini to'g'ri aytishga va birbiridan farqiashga o'rgatish, e'tiborlarini ularning go'zalligiga, hidiga qaratish;

—uy hayvonlari (kuchuk, mushuk, sigir, qo'y, echki, ot) bilan tanishtirish, ularni

birbiridan farqiashga va nomiarini to'g'ri aytishga o'rgatish, rasmlar orqali yovvoyi hayvonlar (bo'ri, quvon tulki, ayiq) bilan tanishtirish, ularni farqlashga va nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish;

—qushlar (chumchuq, kaptar, musicha) va hasharotlar (chumoli, kapalak kabilar) bilan tanishtirish, ularning nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish;

—bolalarni istirohat bog'iga va hayvonot bog'iga (shaharda), bog', poliz va boshqa ekinzorlarga (qishloqda) sayrga olib chiqish va u yerdagi daraxt, gul, ekin va hayvonlar bilan tanishtirish, ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish;

—tabiat hodisalari — qor, yomg'ir, bulut, shamol haqida tasavvur hosil qilish;

—bolalarda jonli tabiatga nisbatan mehribonlik hissini tarbiyalash, daraxt shohiga osilmaslik, tosh otmaslik, gullarni uzib tashlamaslik, maysalarni payhon qilmaslik, jonivorlarga ozor bermaslik zarurligini ularga anglatish;

—4 yoshdan 5 yoshgacha bolalarga tabiat va uni asrash zarurati xakida ma'lumot berish. Meva va sabzavotlar(olma-uzum, qovun, tarvuz, nok, shaftoli, o'rik, olcha, qulupnay, sabzi, karam, pomidor, piyoz, kartoshka va boshqalar) nomlarini, shaklini, rangini, va ta'mini aytib berishga o'rgatish. Ulardan qaysi biri qaerda (daraxt, polizda kabi) o`shishi haqida tasavvur hosil qilish.

— Gullar bilan tanishtirishda davom etish, ularning nomlarini to`g`ri aytishga, rangi va o`ziga xos belgilarini ajrata olishga o`rgatish. Xona gullari haqida ma'lumot berish, ulardan ayrimlarining nomini aytishga o`rgatish. Ularni parvarish qilishga o`rgatish.

— Uy hayvonlari (mushuk, kuchuk, sigir, qo`y, echki, ot va boshqalar) va ularning bolalari nomlarini aytishga o`rgatish. Har qaysi uy hayvoni nima bilan oziqlanishi haqida tasavvur hosil qilish. Ularning o`ziga xos xususiyatlari (yurishi, ovoz chiqarishi)ni o`rgatish.

— Qushlar (chumchuq, musicha, kaptar, to`ti, bulbul, boy hg`li, qaldirg`och, qarg`a va boshqalar)ning nomi, katta –kichikligi, rangi, qanday ovoz chiqarishi, nima bilan tanishtirish. Bolalarda jonli tabiatga nisbatan mehribonlik hissini tarbiyalash. Ularga daraxt shoxiga osilmaslik, tosh otmaslik, gullarni uzub tashlamaslik, maysalarni payhon qilmaslik, jonivorlarga ozor bermaslik zarurligini anglash.

— 5-6 yoshli bololarga tevarak-olam va tabiat xodisalari xakida ma'lumot berish. Er,osmon, quyosh, oy, yulduzlar, havo, suv, bulut, yog'ingarchilik, tuman, shamol,

chaqmoq, momaqaldiraq kabi tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish;

—jonli tabiat — o'simlik va hayvonot dunyosi bilan yaqindan tanishtirish, manzarali daraxtlar (tol, terak, chinor, tut, qayrag'och, arena), mevali daraxtlar (olma, olcha, o'rik, shaftoli va boshqalar), dala o'simliklari (paxta, piyoz, lavlagi, kungaboqar, bug'doy va boshqalar), buta o'simliklari (na'matak, malina, maymunjon va boshqalar) nomlari bilan tanishtirish hamda ularni o'zaro farqlashga o'rgatish;

— bolalarda tabiat go'zalliklaridan zavq olish tuyg'usini tarbiyalash, o'simliklarga zarar yetkazmaslik (daraxt shoxlarini sindirmaslik, o'tlanlarni bosmaslik, atrofmuhitni iflos qilmaslik kabilarni) ularning ongiga singdirish;

— UY hayvonlari bilan yaqindan tanishtirish, ularni parvarish qilishga o'rgatish, yovvoyi hayvonlar bilan tanishtirish (hayvonot

bog'iga sayr qilish, rasmlar, multfilmlar va boshqa teleko'rsatuvlarni tomosha qilish yordamida), hayvonlarning (maymun, yo'lbars, she'r, bo'ri, tulki, ayiq, fil, olmaxon, kiyik, bug'u kabilarning) nomlarini aytishga o'rgatish;

—bolalarning qushlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, qushlarning yashash tarzi — o'troq qushlar, ayrim qushlar (qaldirg'och, laylak, turna va boshqalar)ning bahorda uchib kelishi, kuzda issiq o'lkalarga uchib ketishi, qarg'aning kuzda uchib kelishi va bahorda uchib ketishi haqida ma'lumot berish;

6-7 yosh davri. Bolalarda tevarak –olam va tabiat hodisalari haqida ma'lumot berish. Yorug'lik, elektr va issiqlik hodisalari (quyosh yoritadi va isitadi, elektr chiroq yonadi, elektr dazmol isiydi kabilarni), magnit (magnitlarning o'zaro tortishishi, temirlarni o'ziga tortishi), tovush (buyumlarni bir –biriga urganda tovush chiqishi, hayvonlarning tovushi va insonlarning nutq tovushi orasidagi farq) haqida dastlabki ma'lumotlarni berish. Inson tafakkurining mahsuli bo'lgan turli texnik vositalar (radio, televizor, videomagnitafon, kompyuter) haqida ma'lumot berish. “Tetris”, “Sego” va “Dendi” kabi kompyuterlar bilan bog'liq o'yinlar tashkil etish. Yil, fasllar, ularning nomi va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish. O'simliklarning tarkibiy tuzilishi (ildizi, tanasi, bargi) haqida tasavvur hosil qilish, o'simliklarning fasllarga ko'ra o'zgarishi haqida ma'lumot berish. Daraxt va butalar kurtaklarining bo'rtishi, barg yozishi va gullashi, maysalarning o'sib chiqishi haqida tasavvur hosil qilish. O'simliklarni parvarish qilishda va hosilini yig'ishda ishtirok etishga o'rgatish.

2. BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASI MUHIM OMIL SIFATIDA

2.1. Xalq pedagogikasi tarbiya vositasi sifatida

«O`zbek xalq, pedagogikasi» qamrovi nihoyatda keng, bag`oyat serqirra va serjilo tushuncha bo`lib, u shu xalq, paydo bo`lgan butun davrni o`z ichiga oladi.

Xalq pedagogikasi ijtimoiy va maishiy-ahloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og`zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining etakchi yunalishlarining, diniy ahloqiy talimotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi.

Malumki, xalqning pedagogik qarashlari o`zaro asrlar davomida shakllangan va ular bizga alohida qo`llanma, dastur darsliklar shaklida etib kelmay, balki asosan xalq og`zaki ijodiga kiruvchi turli jonlardagi asarlar, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunosliklar qoshida saqlab qolingan va quron, xadisda uz ifodasini topgan.

Xalq pedagogikasi tarkibiga dostonlar, ertaklar, mehnat, mavsum-marosim qo`shiqlari, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, kayroqi, so`zlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o`yinlari, allalar, to`y va aza qushiqlari, aytishlar, olqish va qarg`ishlar, suyush, erkalash qushiqlari, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, yashinmachoqlar, xukmagichlar, chorlamalar, cheklashmoqchalar, guldurguplar, sanamalar, laparlar, aytishuv, o`lan, termalar, bolalar tarqalish, chorlash qo`shiqlari, ramazon, boychechak, yomg`ir, kuyosh, yulduz, suv aytimlari, chandishlar, tegishmachoqlar, masxaralamalar, «Navro`z», «Mehrjon» bahor, kuz, qish, yoz aytim qo`shiq ashulalari, dexkonchilik, chorvadorlik, kasb-xunarmandchilik bilan bog`lik nasriy va nazmiy asarlar, inson tabiat hayvonot dunyosiga oid namunalar hamda mifologik tasavurlar aks etgan asarlar, quroni Karim, Xadis hamda Sharq mutafakkirlarining ahloq-odobga oid qarashlari kiradi.

Xalq, nazdida, inson ona qornidan yaxshi yo yomon bo`lib tug`ilmaydi - u birday tug`iladi, yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-ona, oila, maxalla-kuy, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat-tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota meros-oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, shuningdek udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik ananalari xal qiluvchi o`rin tutadi. Xalq takidlashicha, bola boshdan tug`ri, xaqqoniy tarbiyalansa, u kelgusida yaxshi inson bulib etishadi, egri yulda tarbiyalansa yomon kishiga aylanadi. Zero, ko`chat boshdan, bola yoshdan maqoliga amal qilish xalq

ananaviy pedagogikasining boy yo`nalishidir. Shuning uchun xalq pedagogikasida tarbiyaning mayda-chuydasi, yani birlamchi-ikkilamchisi bulmaydi, xamma narsa xisobga olinishi, xech bir soxa chetda qolmasligi, ayni chog`da tarbiyaning nixoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari etiborga olingan xolda, etti o`lchab bir kesishga amal qilinadi. O`ziga xosligi shundaki, xalq tarbiyada kecha, bugun va ertani o`ylab ish tutadi, bugunning qadriga etish, kelajakka umid asosida olib boradi.

Xalq pedagogikasining yana bir ibratli tomoni bor, bu xayot tabiat jamiyatdagi xar bir voqea xadisa, predmet, ko`rinishdan mukammal foydalanishdir.

Xalq ananaviy pedagogikasida ishontirish, isbotlash, tasir, ibrat nomunasi, tajriba natijalari, tasdiqlash xam aloxida o`rin tutadi. Buni ayniqsa dov-daraxt, tog`-tosh, parrandalarga bag`ishlangan folklor namunalarida yaqqol ko`rish mumkin. Xalqning bunday qarashlari zaminida to`rt unurni asrash, avaylash, ekologik tarbiya yotadi.

Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so`zlar-duo-olqishlar ham tarbiyaga qaratiladi. Zero, xalq ananaviy pedagogikasida yaxshi so`z, duo olishning tasir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson manaviy ustivorligi, iymon-etiqod butunligi qisqasi, kishilarning har tomonlama mukammal kamolatida tutgan o`rni va rolga alohida ahamiyat beriladi. El-yurt uchun har tomonlama mukammal insonni tarbiyalashga qaratilgan o`zbek xalq pedagogikasi ayrim shaxslar, yoki 1-2 jamoa tomonidan yaratilmagan. Uni xalqimiz asrlar davomida o`zining boy xayotiy tajribalari farzandlar kamolati borasida tutgan tutimlari, say-xarakatlari, yul-yuriqlari, aql-zakovatlari bilan yaratgan. Ayni chog`da o`zbek xalq pedagogikasi o`z rivojida boyib, mukammallanib borishida ilm-fannint boshqa sohalaridan, yani mumtoz adabiyot, sanat, og`zaki ijod, elshunoslik, udumshunoslik, qadrshunoslik, odatshunoslik, ruzshunoslik kabi sohalar bag`rida shakllanib, ular bilan bevosita aloqada buldi, eng yaxshi namunalarni uziga qabul qilib oladi. O`zbek xalqi hamisha safarda, o`zga yurt kishilari bilan muloqotda bo`lgan. Insonparvarlik, baynalminallik, xushyorlik, zukkolik, topqirlik, bilimdonlik, o`quvchilikni uziga e`tiqod qilib olgan o`zbek xalq pedagogikasi ayni chog`da, Sharq odobnomasi, ibratnomasidan doimiy ravishda bahramand bo`lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go`zal namunalarini o`ziga qabul qilib olgan.

Shunday qilib, o`zbek xalq pedagogikasi turkiy xalqlar ota-bobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko`z qorachig`iday asrab avaylab, saqlab kelgan ota meros, Sharq

xalqlarining boy, betakror odobnoma va odatnomasi, xalq pedagogikasi, xalq pedagogikasi eng yaxshi namunalar, allomalaru adabiyot va folklor ijodkorlari-ijrochilarining bu boradagi say-harakatlari, yaratgan asarlari bilan qo`shilgan holda shakllangan, rivojlangan.

O`zbek xalq pedagogikasi uzinig yunalishi, ibratli xulosalarga boyligi, bebaxo asarlari, mano-mantiq jihatdan mukammalligi, teranligi, uslubi, odobnomasi, odatnomasi, ibratnomasi bilan havas qilsa arziydigan buyuk merosdir.

Mustaqillikka erishib, o`z milliy istqklolimizga ega bo`lgach umuminsoniy va o`zbekona qadriyatlarni chuqur anglay boshladik.

Mustaqil Vatanga xar tomonlama etuk, mukammal, axloqiy pok, manaviy ustivor, iymon-e`tiqodi but o`z xalqi Vataniga fidoyi, jismoniy barkamol kishilar etkazish uchun ularning axloqiy-jismoniy tarbiyasiga aloxida axamiyat bera boshladik. Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurishning kelgusi boshqaruvchisi yangi avlod tarbiyasi 1-o`ringa chiqdi. Bu vazifani amalga oshirishda xalq pedagogikasining roli kattadir.

Milliy istiqlol mafkurasini yaratishda ham o`zbek xalq pedagogikasi an`analaridan foydalanish kerak. Chunki xalq og`zaki ijodi, xalq pedagogikasi an`analari milliy istiqlol mafkurasining asosiy manbalaridir.

O`zbek xalq pedagogikasi bola ko`rish, tarbiya jarayoni va uning jamiyatda tutgan o`rni, xalq pedagogikasida tarbiyaning tarkibiy asoslari (aqliy, axloqiy, jismoniy va nafosat tarbiyasi) milliy tarbiyani amalga oshirish usul va vositalari, yoshlarni dastlabki oilaviy odob qoidalariga odatlantirish va uni amalga oshirish yo`llari, yoshlarni dastlabki oilaviy dastyorlikka odatlantirish, uni amalga oshirishda foydalaniladigan usul va vositalar, xalq, pedagogikasida maktab va xunar ta`limi, shuningdek boshqa shu kabi tarbiyaviy tadbirlarni qamrab oladi.

Bolalarni axloqiy tarbiyalashda maqol, ertak, doston, alla, qo`shiq, yor-yor, o`lan, to`ylar, sayllar, yig`inlar, aza marosimlari, ro`za hayit, qurbon hayit, Navruo`, mehmon kutish, ma`naviy boyliklarimiz asosiy rol o`ynaydi.

Axloq-kishining atrofidagi kishilarga munasobatiga ko`ra uning burchini belgilaydigan normalar sistemasi, qisqa qilib aytganda, inson xulqining qoidalaridir. qizig`i shundaki, bu qoidalar xech kaysi Kodeksda ko`rsatilmagan. Axloq me`yorini ham, axloqlilik yoki axloqsizlik haqidagi bahoni ham xalq beradi.

Xalq nazaridan qolishning o'zi axloqsizlik uchun berilgan eng oliy jazodir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, axloq, avvalo, tarixiy va milliy xarakterga ega. Chunki 1- xalq, uchun ahloqiy fazilat bo'lgan xislat 2-bir xalq uchun axloqsizlik sanaladi. Axloq, odob xaqidagi tushuncha, tasavurlarni, odatlarni tarkib topshirishda xalq, og'zaki ijodining, oilaning, atrof-muxitning tarbiyaviy ta'siri bekiyosdir.

Bayramlarimiz, urf-odatlarimiz, marosimlarimiz, udumlarimiz xam bolalarda ahloqiy fazilatlarini shakllantirishda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Axloqiy tarbiya usullariga *tushuntirish, namuna qursatish, odatlantirish (urgatish, mashq qildirish) iltimos qilish, tilak-istak bildirish, rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo'l tilash) kabilar kiradi. Ta'kidlash, ta'na (gina, o'pka) qilish, masxara qilish, majbur qilish, tanbex berish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, la'natlash, urish, kaltaklash singari tarbiya usullari* xam keng tarqalgan.

Ahloqiy tarbiya vositalaridan biri maqollardir. Maqollar odamlarning xayoti va turmush jarayonida to'plangan tajribalari duneqarashi, o'zi yashab turgan jinoiy xayotga bo'lgan munosabati, o'tmish xayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruxiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. Shuning uchun xam ular bola tarbiyasida, xususan axloq va odobiga ijobiy ta'sir etadi. O'zbek maqollari tinglovchiga o'git-nasihat tarzida band uxshatishlar orhali aytiladi:

Oltin olma, duo ol,
Duo oltin emasmi.
Onangga boshingni xam kil,
Otangga gapingni kam kil.

Ertak va dostonlarda bola tarbiyasining deyarli xamma tarkibiy jismlari tarkib topishgan oid materiallar ko'p.

Masalan: «qorasoch pari» ertagida Nodira yosh chog'ida otadan etim o'sgandi. Onasi Nodirani safarga jo'natishdan oldin unga 3 nasixat aytadi:

- 1) Birovga xiyonat qilma
- 2) Birovning dilini og'ritma
- 3) qaysi shaxarga borsang, o'sha shaxarning qariyalari bilan suhbatlash.

U onasing nasihatiga kirib, murod-maqsadiga etadi. Yoki o'z farzandini salomlashishga odatlantirilgan ota-ona ulug'lanadi;

qizil-qizil olma terdim, tepa shoxdan egilib,

qizlarjon o`tib boradir, soch bosh erga tegib,
Salom bersam alik oldi, tol xivichdek egilib,
O`stirgan onangga rahmat, o`lماغaysan ko`z tegib.
Yoki ota-ona qoralanadi, ta`na va isnodga qoladi:
Ikki yuzing pishgan olma,
Noz etib hargiz buralma.
Ishdan xech bo`yin tovlama,
Chiroylisan qurdik, kelin.
Onang seni o`stirgan xom,
So`zlarimni uqding tamom.
Kattalarga bergil salom,
Shunda qadring ortar kelin.

qushiqalarda xam salomlashish yoshlarning odobli yoki odobsizliklarini belgilaydigan omil ekanligi ko`rsatiladi.

Aka, yoringni ko`rdik,
Dalada yurgan ekan,
qaytarilib salom bersam,
Tili yo`k, xayvon ekan.
Yoki allani ko`raylik:
Har daraxtning mevasi ko`p bo`lsa, boshi xam kelur,
Har kishining dardi bo`lsa, diydasi dan nam kelur,
Shodmonlik istasang oxir boshingga g`am kelur,
Nola qilsam, qo`rqaman-majlisga nomaxram kelur,
Marxabojon, bibing aylansin bolam, dod allayo.

Yoki «Usta Nishon» ertagini o`qigan bolada yaxshi xulqli bo`lish, duo olish, ota-onaga raxmat keltirish ishtiyoqi uyg`onadi.

Yoki kuyida qoralash usulining qarg`ish shakli ishlatilgan:
Sen, juvormarg, eshit mening tilimni,
Nega sen yig`latding mening ulimni
Nega urding echki boqar kalimni
Senda odam, bilib yurgin yo`lingni!

Otang xurmati siylab turayin
E juvonmarg, bilganimday qilayin,
qarab turgin, sen xam meni bilasan,
Echki boqar-kalga tegsang, o`lasan.

Shu satrlarni uqigan bolada yomon yo`ldan yurish, odobsiz bo`lishdan chekinish tuyg`usi paydo bo`ladi.

Yoki «Turo`g`li» siklidagi dostonlardan «Chambil kamoli» dostonida dushman bilan bo`lgan jangda Vatanni ximoya qilish uchun ayollar-Go`ro`g`lining xotinlari jon olib-jon berishdi. Yoki «Shiroq», «To`maris» afsonalari orqali vatanparvarlik tuyg`ulari tarbiyalanadi.

Yoki «Zumrad va qimmat» ertagini olaylik. Zumrad aqlli, odobli, xushmuomala bo`lgani uchun xam, u ertalab suvga borganda yo`lda gullar ochilib, egilib salom berishadi, qushlar sayrab Zumradni maqtashadi, Qimmat suvga chiqsa, gullar qovog`ini uyib, yumilib oladi, qushlar jim bo`lib qolishadi. Chunki Qimmat gullarni oyog`i bilan ezib, yulib tashlar, gullarga toshlar otar edi. Buni eshitgan bolalar Zumradga o`xshab odobli bulishni, qimmatga o`xshamaslikka xarakat qilishadi.

Ertaklarniig tarbiyaviy axamiyati shundaki, unda ezgulik va yovuzlik o`rtasida qurash ketadi va oxirida yaxshi bo`lsang, albatta murodinga etasan degan xulosaga kelishadi va yaxshilikka intilishadi.

Axloqiy tarbiyaning eng ta`sirchan vositalaridan biri hadisdir.

Masalan: Munofiqlikning belgisi 3-tadir

- 1) yolg`on so`zlash
- 2) va`daning ustidan chiqmaslik
- 3) omonatga xiyonat qilish

Tangri nazarida eng yaxshi gap-rost gapdir. Tangri nazdida uylarning yaxshirog`i-etilar izzat qiladigan uydir. Xalokatga olib boruvchi 7-xil gunohdan saqlaning:

1. Tangriga shak keltirmaslik
2. Sehr ishlari bilan shug`ullanmoq
3. Birovni nohaq o`ldirmoq
4. Sudxo`rlik
5. Etimlar molini emoqlik
6. Vatan mudofasi uchun bo`layotgan urushdan qochmoq

7. Erli, mumina, iffatli ayollarni fohisha deb xaqoratlamog

Yoki : Oralaringda eng kuchlilaring kimligini aytaymi? U g`azabi kelganda tutib tura oladiganingizdir. Yoki: Odamlar orasida chaqimchilik va bo`xton gaplarni tarqatmasdan saqlaning.

Umuman Sharq xalqlarida odob-ahloq, izzat-xurmat, xayoy-andisha uning insoniylik qiyofasini belgilovchi asosiy omildir.

Odob xaqida:

«Odobli garchi barcha kishilardan yaxshidir, xamma xaloyiqdan yoqimlidir. Odobli uz tengxo`rlari orasida bir-biriga matonatli buladi, kattadan-kichik orasida yaxshi kurinadi. Saxiylik qilmay, elni shod qiladi va bir narsa xadya qilmay kishini g`amdan ozod qiladi. Odob kichik yoshdagilarni ulug`lar duosiga sazovor etadi va duo barakati bilan umrbod baxramand buladi. Odob kichkinalar mexrini ulug`lar kungliga soladi va u muxabbat kungilda abadiy qoladi».

Yoshlarni ko`zga ulug` kursatadi, ularning yurish-turmushini xalq ulug`vor biladi. Uziga qarshi xalq tomonidan buladigan xurmatsizlik eshigini bog`laydi na kishini, xazil mazaxdan va kamsitishdan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yuliga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bulgach, kattalarga allaqancha bo`lishini ko`rarsan. Odobdan muhabbatga bezak va pardozi etadi, odob tarnidan do`stlikning ravnaq va bahosi ketadi.

qanoat tug`risida: qanoat buloqdur - suvi olgan bilan kurimaydi.

Sabr tug`risida:

Sabr achchiqdur - ammo foyda beruvchi,

qattiqdir - ammo zararni dafn etuvchi.

Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o`rtoqdir-suhbati zeriktiruvchi, ammo maqsadga olib boruvchi

Ulfatdir-umidi uzun, ammo oxirgi istakka eltuvchi

Vafo va hayo haqida:

Karam va muruvvat ota-onalardir, vafo va xayoy ikki egizak farzand. Vafosizda xayoy yo`k, xayosizda vafo yuq.

Saxiylik tug`risida:

Saxiylik kupchilik bog`ining xosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik ulkasining to`lkinli daryosi, balki u to`lkin daryosining asl gavharidir.

O`zbek xalq pedagogikasida bundan tashkari bola yashab turgan muhit-sharoitning vositachi roli ham mavjudki, ular yoshlarning ahloqiy fazilatlarini shakllantirishda katta va samarali tarbiya vositasi hisoblanadi.

Bular jumlasiga; bolalar o`yinlari, choyxurlik (choyxona gurungi), bolalar majlisi, mehmondorchilik, xasharlarni kiritish mumkin. qolaversa, xalqning milliy urf-odatlarini, turli marosimlar, an`analar, bayram va marosimlar bolalar tabiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunochi:

a) to`y marosimlari-beshik to`yi, sunnat to`yi, nikoh to`yi, hovli to`yi;

b) sayllar-dala sayli, gul (binavsha)sayli, qovun sayli;

v) yigin (tomosha), tugilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz bazmi (majlisi), kelin salom, uloq (kupkari), poyga, kurash, turli shakldagi musobaqalar;

g) aza marosimi (ma`rakasi);

d) safarga chiqish, ovga borish, kino, teatr, istirohat bog`i ommaviy yigini tomoshaga borish hamda bayramlar (Ro`za xayit, qurbon xayit, Navro`z);

Bunday davralar va yig`inlarning tarbiyaviy ta`siri kuchlidir. (Ertakda) Masalan: Xon urdasiga shoshilayotgan ota ug`lini chaqirib, uyda qolayotgan mehmonlar tug`risida shunday deydi: «Mening qachon qaytishim noma`lum. Meg`monlarga yaxshi qarab tur. O`rinlaridir turishi bilan joylarini yig`ishtir, yuz - qullarini yuvгани suv ber, sochiq tut, sung salom berib yaxshi yotib turganliklarini so`ra, sut, qaymoq bilan nonushta ber, hurmatlarini qil. Basharit bugun ketishadigan bo`lib kolishsa, mendan duo ayt, kelolmasligimning sababini aytib, uzr so`ra. Ketishsa, ko`z ilg`amay kolguncha orqalaridan qarab tur deb tayinlaydi. Bu bilan mehmonga qanday munosabatda bo`liishi bolalarga o`rgatadi.

Umuman, xalq pedagogikasida yoshlar ishtirok qilgan yoki yoshlarga qarata aytilgan ramziy ug`itlar tarbiyaning eng ta`sirchan, samarali vositasi bulib hizmat qiladi

O`zbek xalq pedagogikasining asosi oilaga borib ta`aladi. Bola eng avvalo ana shu oilada uzining kandy tutishini, nima yomonligini kattalarning gap-suzlaridan, uzlarini tutishlaridan, pand-nasixatlaridan urgana boshlaydi. Uzbek xalk pedagogikasida xam birinchi urnida oilada totuv yashash, ozodalik, uy-joyini saranjom-sarishta tutish,

mexnatsevarlik, keksalarni xurmat qilish, jonivorlarga shavkat bulish, usimliklarni parvarishlash, uzidan kattalarni, keksalarni xurmat qilish kabi royalar bilan uluglanadi.

Uzbek xalk pedagogikasining uziga xos tomonlaridan biri shundaki, bolalar kundalik uy-ruzgor, poliz bogdorchilik, me'morchilik, duradgorchilik, chorvachilik ishlarini ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari bilan xamkorlikda bajarib xam jisman, xam ruxan kamol topib boradilar. Bu jarayonda xar kandy ota-ona, kattalar bolalarda mexnatsevarlik fazilatini tarkib topshirishga xarakat kiladi va uzi bu borada namuna kursatadi, bu esa an'anaga aylanadi.

Keksa avlod vakillari yoshlarni mexnatsevar, vijdonli, chidamli, aklli, xushchachak, dilkash bulishlarini, uzidan kattalarni, ota-onalarni xurmat qilishni, kichiklar xakida kaygurish, parvarishlashni, yomonlikka nafratda bulishni doimo ta'kidlab kelishgan.

Uzbek oilalarida yoshlar akalari, opalarini, kattalarni, ota-onalarini, chukur xurmatlashga urgatiladi.

Ularning oldilarida sukut saklash, tartibli, intizomli bulish, kattalarning topshiriklarini bajarishga urgatiladi.

Odatda 5-6 yoshdan boshlab kuchlari stadigan oilaviy yumushlarida ishtirok etishga urgatiladi. Shu sababli kattalar suzsiz obruli, bolalar esa oilaning suyuklisidir, u kattalarning gamxurliklari bilan kamrab olingandir.

Bolalar kuprok, uyin faoliyati jarayonida xam tarbiyalanganlar. Uzbek xalk, an'analari bunday pedagogik prinsipni uzida mujasmlashtirgan. N. Krupskaya uzbek bolalari uyinlarining uziga xos xususiyatlarini ijobiy baxrlab: «Ular tabiat bilan yakin munosabatda yashaydilar, juda kup kizikarli uyinlarga ega. Ular balki rus bolalariga karaganda tez chopar, degan edi.

Darxakikat, «bekimachok», «Chillak», Ok, terakmi, kuk terak», «Kuz boglagich», «Dor», «Koch bolam, kush keldi» kabi uyinlar bolalarning chakkon, epchil bulib tarbiyalanishida axamiyatga ega.

Bolalarni mexnatsevarlnk, ishchanlik ruxida tarbiyalashda xalk ertaklarining xam roli bekiyosdir.

Masalan: mexnat sevarlik uzbek xalk ertaklaridan «3umrad va Kimmat» da uz ifodasini topgan. Zumrad uzbek xalk, pedagogikasida uluglanadigan eng yaxshi fazilatlarni uzida mujassamlashtirgan, latofatli, mexnatsevar kiz. Kimmat esa aksincha, yalkovlikni, xasadguylikni, baxillikni, tantiklikni, kattalarga xurmatsizlikni,

shafkatsizlikni yuktirib olgan. Albatga, bunda onasining notugri tarbiyasi uz salbiy ta'sirini kursatgan. Yaxshi fazilatlarining sharofati, yomon fe'l-atvorining kasofati etrakda juda ta'sirchan tarzda ifodalangan. Shuning uchun xam uzbek oilalarida «Zumrad va Kimmat» ertagi uzbek oilalarida kayta-kayta ukiladi, aytiladi.

Uzbek oilalaridagi bolalar yoshligidan mexnat muxitida bulgan, ular kullaridan keladigan ishlarga juda barvakt jalb kilingan va ota-onalari singari vijdonan mexnat kilgan. Oilalarda bolalarga ilk yoshligidan boshlab tabiatdagi, kishilarning uzaro munosabatlari, xulki va xatti-xarakatlardagi guzalliklarni kursatish va tushuntirishga aloxida e'tibor beriladi. Kizlarga sifatli bichish va tikish, tukish, gilamduzlik, gazlamalardan tayyorlash urgatiladi; ugil bolalar esa kundalik turmushda kerakli oddiy buyumlarni, shuningdek, mexnat kurollarini yasashga jalb kilinadi.

Bolalarni milliy mexnat an'analari ruxida tarbiyalashda maxalla uziga xos markaz sifatida boy va xilma-xil tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, Maxalla axolisi jamoasining barkaror ma'naviy axlokiy muxitdagi bolalarning bush vaktini tez va maksadga muvofik tashkil kilish, ularni xamkorlikdagi mexnat faoliyati buyicha barkaror ma'naviy-axlokiy an'analari va maishiy tamoyilarga ega bulgan oilalarning muayyan xududida uzok vaktlar jam bulib yashashi tufayli vujudga kelgan urf-odatlar xamda udumlarga rioya kilgan xolda turli mexnat faoliyati soxalariga jalb etish imkonini beradi.

Ukuvchilarni maxallalardagi ilgor milliy mexnat an'alaridan foydalanib, kuydagi tarbiyalarni amalga oshirish maksadga muvofikdir. Ilgor milliy moxnat an'analari, urf-odatlari va marosimlarning bilimdonlarini tarbiya-targibot yusinidagi xar xil tadbirlarni amalga oshirishga, bolalar va yoshlarni mexnatga urgatish, tarbiyalash va kamol topshirish buyicha boy merosini urgatish lozim.

Oksokollarni, kaxramon onalarni, mexnatsevar, obruli oilalarning vakillarini taklif kilib, «Odobnoma» dasturi buyicha mashgulotlar utkazish amaliyotini targib kilish, kadimiy xalk xunarmandchiligini tiklash maksadida tugaraklar ochib, ularga moxir ustalarni, tashabbuskorlarni jalb kilish kerak.

Pedagogik jamoalar, maxalla va ota-onalar kumitalarining milliy mexnat an'alarini, urf-odatlari va marosimlari asosida mexnat tarbiyasini jonlashtirish masalalari buyicha kushimcha majlislarni yulga kuyish samarali natija beradi. Mexnatning inson xayotida tutgan urni xakida kadimigi mukaddas kitobimiz «Avesto»da xam juda kimmatli fikrlar keltirilgan.

Masalan: Yaxshilik va ezgulik yaratish un kishi mexnat kilish, uz kullari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim.

Yoki: bolalar eng paytdanok daraxt kuchati utkazish, ruzgor kurollari yasash, erga ishlov berish va chorva bilan shugullanishga urgatish shart.

Yoki: mexnat kilmaydigan inson! sen xakikatan xam tilanchilar katorida, yot eshiklarga ta'zim kilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Xakikatan xam sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib utadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mexnat kilayotgan, tuk va faravon yashayotgan xonadonga nasib kiladi. Abadul-abad shunday bulajak! Bu xakda Shark mutaffakirlarining fikrlari nixoyatda ibratlidir.

Jismoniy tarbiya buyicha shark mutaffakirlarining fikrlari tasinga sazovordir. Masalan: Abu Ali ibn Sinoning jismoniy tarbiya buyicha fikrlari xozirgi kullarda xam uz axamiyatini yukotgan emas, balki olimlar tomonidan chukur urganilib, yanada rivojlantirilmokda. IIIunisi kizikki, 1 asrga kadar Urta Osiyoda badantarbiya mashklarining kishi organizmiga soglomlashtiruvchi ta'siri tugrisida ilmiy asoslangan ta'minot bulmagan edi.

Ibn Sino Urta Osiyoda birinchi bulib bu ta'minotni yaratdi va uz fikrlarini «Tib ilmi konuni» nomli asarida bayon kilgan.

Uzbekigton mustakillikka erishgan bugungi istiklol kunlarida xalk milliy uynnlari kaytadan tiklanmokda. Kadimiy sport uyinlarimiz chavandozlik, merganlik, kurash, kupkari yoshlarni enchil, chakkon, mard, jasur, zukko kilib tarbiyalashda bekiyos axamiyatga egadir.

Masalan: Forishda xar yili baxor oyida uzbek xalk uyinlarining resupblika mik'yosida kurik-konkursi utkazilmokda.

Xullas, mexnat va jismoniy tarbiya xalk pedagogikasida shaxsni kamolotga etkazishda xayotga, mexnat faoliyatiga tayyorlashda muxim pedagogik omildir.

O'zbek xalq poetik ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan muhitda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mavjud ekanligi ko`rinadi.

Yuqorida aytib o`tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida qo`llaniladigan: tushuntirish, namuna ko`rsatish, odatlantirish (o`rganish, mashq qildirish), iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko`ndirish, undash, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo`l tilash), taqiq

qilish, ta'na (gina, o'pka) qilish, masxara - mazax qilish, majbur qilish, tanbeh berish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, ont - qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash metodlari bo'lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan: o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va maqtash, alqash, mukofotlash, qoralash - qarg'ish, jismoniy jazo berish kabi metodlardan foydalanilgani ko'zga tashlanadi.

O'git va nasihat xalq og'zaki ijodida bolalarda insoniy-fazilatlarni tarbiyalab etishtirishda eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir. Avvalo kishilarni kishi tomonidan qadrlanishi, kishilik burchini anglash, halol va rostgo'y bo'lish, yaxshilik haqida teran fikr yuritilgan xalq maqollari asosan pand-nasihat shaklida tinglovchiga (ii shaxs) nisbatan maslahat, nasihat, istak va buyruq shaklida ishlatiladi.

Bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan eng xarakterli shakllardan biri, xalq donishmandlarining axloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so'zlari - maqollarini u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo'lgan muammo sifatida ishlatilishidir. Ya'ni axloq va odob masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy haqiqat ekanligini ma'lum ertak mazmuni orqali ochib berilishidir.

Shu bilan birga xalq donishmandlari tomonidan yaratilgan maqol shaklidagi o'git-nasihatlariga amal qilmaydigan qaysar, o'jar kishilarni xalq tajribalarini tan olishga, unga amal qilishga da'vat etadigan hamda shu orqali yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan ertaklar ham ko'plab uchraydi.

Jumladan «zolim podshoh» ertagida: «qari bilganin pari bilmas», «eshonim deb eshagimdan ayrildim» ertagida: «er-xotin qo'sh ho'kiz»; «maslahatli ish bitar, bemaslahat ish boshga etar» kabi maqollar o'git-nasihat yo'sinida uqtiriladi.

Demak, xalq og'zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash haqidagi o'git-nasihatlarini maqollar orqali uqtirilishi bilan birga ayrim ertaklarda axloq va odob yuzasidan aytilgan maqollarning mazmunini obrazli bayon qilib berilishi orqali ham o'sha maqollarni naqadar hayotiy haqiqat ekanligi uqtiriladi. Shuningdek, maqollarning g'oyalari xalq donishmandlarining uzoq tarixiy davrlar davomida to'plangan va takror-takror sinovdan o'tgan turmush-tajribalari sifatida vujudga kelgan, yaratilganligi ilgari suriladi. Shu orqali yoshlarni ijobiy xatti-harakatlarga ega bo'lgan obrazlardan namuna olishga, unga erishishga targ'ib qilinadi.

B) namuna ko'rsatish

Insoniy fazilatlarni tarbiyalashda namuna ko'rsatish metodi ustida rap yuritilar

ekan, avvalo shuni aytib o'tish kerakki, insoniylik mavzusida aytilgan ertak va dostonlarning o'zi katta tarbiya vositasi, metodi sifatida xizmat qiladi. Biroq rap axloqiy tarbiya yuzasidan namuna ko'rsatish ustida borar ekan, biz bevosita asarda tasvir etilgan voqeaga bog'liq holda bolalarga axloqiy namuna ko'rsatish yo'li bilan tarbiyalab etishtirish borasidagi masalalarni yoritishni nazarda tutamiz.

O'zbek xalq ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo'llaniladigan namuna ko'rsatish metodi juda ko'p shakllarda uchraydi. Ertak va dostonlarda uchraydigan namuna ko'rsatish metodining xarakterli tomoni — uning asosan «ikki yo'nalishda» ko'zga tashlanishidir. Bir tomondan, ijobiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning xatti-harakatlarini ko'rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomondan salbiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning nojo'ya xatti-harakatlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga, yaramas urinishlardan qochishga targ'ib qilinadi.

Masalan, «erali va sherali» dostonida, aka-ukaning domlasi-ustozi bolalarga odob va axloq haqida juda ko'p pand-nasihatlar aytadi. Shu o'git-nasihatlardan xulosa chiqarib, erali ukasiga: — «aqli rasolarning gapini ko'rdingmi?» deb, o'shanday donolardan ibrat olish kerakligini aytadi.

«orzigul» dostonida suvonxon otasi sultonxonning o'zi ustida parvona bo'lishining qadriga etmaydi. Arzimagan rap bilan otasiga nisbatan ginaxonlik qilib yuradi. Otasi esa bundan ranjiydi. Shu orada suvonxon farzand ko'radi. U bolasini juda sevadi. U:

«farzand qanday yaxshi! Yurakning moyidan, kishining mehri joyidan bo'lur. Ko'rar ko'zimni yig'latma,—deb, orzigul bilan o'g'lining qoshiga kelib: «kishi farzand ko'rmaguncha ota-onaning qadrini bilmas ekan. Buning yig'lagani uchun yuragimga olov tushdi. Otam menga ham shunday kuygandir» deb o'g'lini qo'lga olib, bir so'z dedi:

Otam qadrin endi men ham bilaman,

Bosgan izin men ziyorat qilaman.

Bola bo'lar jondan aziz kishiga,

Yig'lama, dilmurod, darrov kelaman.

Suvonxon o'z vaqtida otasining qadriga etmadi. Otasi suvonxonga nisbatan juda ko'p tarbiyaviy ta'sir qiluvchi namunalar ko'rsatishga urindi. Biroq, suvonxon parvo qilmadi. O'zi farzandli bo'lishi bilan ota-onaning bolaga mehribonligi va muhabbatini anglay boshladi. Endi u otasidan ibrat olishga, uni qadrlashga ahd qildi.

«men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga» ertagida yuqoridagi ertak mazmuni yanada rivojlantiriladi. Odil yosh dehqon, u endigina bir farzand ko`rgan. Uning ikki yoshga kirgan o`g`li bo`ladi. Odilning onasi har kuni kosachada o`g`liga ovqat qilib olib kelardi. U kelishida har gal nabirasini ergashtirib kelardi. Bugun kelib qarasa, o`g`li ochiq maydonda, jazirama oftobda ketmon chopayotir. Kampir tol salqiniga kelib to`xtab, o`g`lini ovqatlanishga chaqirdi. O`g`li ana-mana deb tezda kelavermaydi. Shunda kampir nabirasini jazirama oftobning tig`iga obchiqib o`tqazib qo`yadi. Buni ko`rgan odil onasidan xafa bo`lib:

«ho ona, bolani oftobdan oling» deb qichqirib kela beradi. Shu bahona bilan ishdan chiqib ovqatlanishga o`tiradi. Shunda kampir: «bolam, men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga» deb shunga aytganlar» deb ta'na qiladi.

Bunda ham ona o`z o`g`liga ota-onani qadrlash yuzasidan o`rinli namuna ko`rsatadi. Kampir bu yoshdagi o`g`liga o`zining ichki tuyg`ularini, unga achinish, ayashi va mehru shafqatini jonli so`z orqali izhor qila olmas edi, albatta. Nabirasini oz fursat quyosh tig`ida qoldirishi va yosh otaning o`z farzandini oftobda qolishiga toqat qila olmay maydondan yugurib chiqishi, onaning ham bola uchun shunchalik g`amxo`r ekanligini, amalda namuna qilib ko`rsatish edi.

Ba'zi ota-onalarning oiladagi bolalar oldida mas'uliyatsizlik bilan muomalada bo`lishlari, nojo`ya xatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga salbiy ta'sir ko`rsatadi.

Masalan, «sen ham bo`lursan mendek» ertagini ko`raylik. «rasul ota to`qson yoshdan oshib, asablari bo`shashib, kuch-quvvatdan qolgan kezlari. Unga qanday chinni idishda ovqat bersalar ham qo`llari bilan tuta olmay tushirib sindira beradi. Kelin o`ta xasislik bilan cholni ranjitadi, o`g`liga shikoyat qiladi. Nihoyat o`g`il yog`ochdan yo`nib otasi uchun maxsus yog`och kosa (to`s-tog`on) qilib beradi. Chol faqat shu kosadagina ovqatlanadigan bo`lib qoladi. Bu ahvol oiladagi to`rt yashar nabirasiga qattiq ta'sir qiladi. Bir kuni ertalab otasi ishga ketayotsa bola qo`liga pichoq olib, ha deb bir yog`ochni o`ynayotgan emish. Shunda otasi:

Nima qilayotirsan, o`g`lim? — deb so`paca, bolasi:

Siz qariganingizda buvamga o`xshab ovqat eydigan yog`och kosa qilayotirman,— deb javob beribdi.

Bolaning javobi otaga qattiq ta'sir qilibdi. Qilmishidan pushaymon bo`pti. Yog`och kosani chinni idishlar bilan almashtiribdi».

Demak, ota-ona va oiladagi kattalarning ijobiy fe'l-atvor va xatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga ijobiy ta'sir qilgani kabi oiladagi kattalarning nojo'ya xatti-harakatlari bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi yosh bolalar, o'z tabiatlariga ko'ra, ko'pincha kattalarga ko'r-ko'rona taqlid qiladilar. Shuning uchun ham ular o'z oilalaridagi kattalar misolida ijobiy yoki salbiy fe'l-atvorga zga bo'lishlari mumkin.

V) rag'batlantirish va qoralash metodi

O'zbek xalq og'zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo'llaniladigan rag'batlantirish va qoralash bir necha shaklda ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik ertak va dostonlarda rag'batlantirish metodi: 1) ma'qullash va maqtash, 2) alqash, 3) mukofotlash shakllarida; qoralash metodi esa: 1) qarq'ash, 2) jismoniy jazo berish shakllarida uchraydi.

Rag'batlantirish

Rag'batlantirish metodi axloqiy tarbiya yuzasidan eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, xalq og'zaki ijodida u turli shaklda ishlatiladi. Ularni shartli ravishda quyidagi uch guruhga ajratgan holda talqin qilish mumkin:

Ma'qullash va maqtash

Xalq og'zaki ijodiyoti asarlarida bolalarni insoniylik yuzasidan amalga oshirgan ibratli ishlarini kattalar tomonidan ma'qullash, taqdirlash, rahmat aytish va maqto'v bilan bir o'rinda tasvirlanadi.

Masalan: «erali va sherali» dostonida, erali bilan sheralining insoniylik yuzasidan el-yurt, oshna-og'ayni o'rtasidagi munosabatlari usta odilni juda quvontiradi, ularning fe'l-atvoriga qoyil qoladi.

«usta odil ikkalasining yuziga qarab:— barakalla, aka-ukalikda o'zgalar sizlardan ta'lim olishlari kerak. Ta'lim bergan ustozingga ming rahmat, ustoddan ibrat olgan aqllaringga rahmat, ikkinchi padaringga rahmat!—deb ikki kalima so'z deb turibdi:

Bir-biringga ma'qul bildim so'zingni,
Ziyorat aylasam bosgan izingni,
Botir bo'nglar, sarg'aytmanglar yuzingni,
Dushmanga oldirma elu-tuzingni...
Odil deydi, men sizlardan parvona,
Xush qilig'ing qildi meni devona,
Ikkoving shamdirsan, men bir parvona,

Chiqarib berayin, o`g`lim sozingni».

«Quyosh erining pahlavoni» ertagida, rustam hali yosh yigit, u podshohlikka qarshi kurashadi. Asir qilingan xalq va qafasda saqlanayotgan yosh go`daklarni ozod qiladi. Shunda har kim o`z farzandini o`zi olib (temir qafasdan) rustamga ofarin aytib, archazor tomon ketadilar».

«suxrob bilan mirzob» ertagida tasvirlanishicha, suxrob bilan mirzob ikkisi katta bir mamlakat xalqiga tahlika solib turgan devlarni o`ldiradi. Shunda «saroyga yig`ilgan kishilar suxrob bilan mirzobning bahodirlarcha qilgan xizmatlariga ofarinlar aytib, qoyil qolishibdi, shuningdek qo`zixon bekaning ham aqlu-hushi, idrokiga tahsin, ofarinlar aytib podshoning bu haqda chiqargan farmoniga xursand bo`lib tarqalishibdi».

Yuqorida keltirilgan asarlarda bolalar o`zlarining odobi, insonparvarliklari bilan ota-ona, ustoz ham xalq ommasining olqishlariga sazovor bo`ladilar. Ba'zan ertak va dostonlarda bolalarning taqdirlanish sabablari ko`rsatiladi, ularning kelajakda ham shunday bo`lishiga da'vat etiladi. Masalan: «chambil mudofaasi» dostonida shunday voqeani ko`ramiz: go`ro`g`libekning o`g`li avaz xoldorxonnikiga to`yga boradi. To`y davomida xoldorxonning dushmanligini sezib keladi va bo`lgan voqeani otasiga aytib beradi. Shunda go`ro`g`libek: «avazning bu so`zlarini eshitib, sherday hayqirib, yo`lbarsday cherpini, qoplonday chopinib, ko`zlari o`tday yonib:

«barakalla, o`g`lim, yaxshi ish qilib kelibsani!... Indamay kela berganingda mening o`g`lim bo`lmas eding, men sendan xush vaqt bo`lmas edim...

...o`g`lim barakalla! Har ish vaqti-soatida bo`la-di,— dedi».

Ko`rinib turibdiki, go`ro`g`libek o`z farzandi avazning faoliyatidan minnatdor bo`lib, uni rag`batlantiradi. Otaning nima sababli farzandidan minnatdor ekanligi ham o`quvchiga ma'lum. Bunday taqdirlash boshqa dostonlarda ham uchrab turadi.

Alqash

Alqash xalqimiz o`rtasida qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan rag`batlantirish shakllaridan biridir, alqash xalq og`zaki ijodida rag`batlantirishning boshqa shakllariga qaraganda ko`proq uchraydi.

Odatda alqash va qarg`ish ma'lum ijtimoiy guruh va alohida shaxslarning o`zaro munosabatlarida, bir-birlarining ijobiy yoki salbiy xatti-harakatlariga nisbatan minnatdorchilik yoki g`araz, noroziliklarini izhor qilishlarida qo`llangan.

Asosan, ota-ona, keksalar va umuman ayrim shaxslar o`zgalarning ijobiy xatti-

harakatlariga minnatdorchilik izhor qilishga qodir bo`la olmasalar taqdirlash, mukofot, armug'on, in'om o`rnida o`zlarining chuqur ichki istak va armonlarini izhor qilganlar. Keyinchalik o`zgalar uchun bag'ishlanadigan istak va orzular o`ziga nisbatan qudratli va qodir bo`lgan — tashqi kuch — ollohdan so`raydigan bo`lganlar. Shu munosabat bilan ko`pincha alqash duo tariqasida qo`llaniladigan bo`lgan.

O`z navbatida alqash — duo ham bir necha yo`nalishda ko`rinadi.

Birinchidan — o`z fe'li-atvori va xatti-harakati bilan kattalarni manzur qilgan bolalarning sog'-salomat bo`lishlariga nisbatan ishlatiladigan alqash: umringdan baraka top (ilohim — xudoyo-xudovando umringdan baraka top), dard ko`rma, tani-joninig sog' bo`lsin (ilohim...) Va hokazo.

Ikkinchidan — bolalarning kelajagi haqida: baxtiyor bo`l, niyatingga et, tuproq olsang oltin bo`lsin, ulug' martabalar nasib qilsin (ilohim baxtiyor bo`l...).

Uchinchidan — tashqi ta'sirga nisbatan: do`stga zor, dushmanga xor bo`lma, qast qilganlar past bo`lsin (ilohim...) Va hokazo.

Masalan, «usta nishon» ertagida: «oq buloq» qishlog'ida yashovchi xalq «oq buloq» ko`li atrofida yashasa ham suvdan bahramand bo`la olmas ekanlar. Qo`shni qishloqlik usta yo`ldoshning o`g'li usta nishon oqbuloq qishlog'iga keladi va xalq kuchi bilan katta charxnov (charxpalak) quradi. Qishloqda yana suvga ma'murchilik boshlanadi. Usta nishon ham shu qishloqda yashab qoladi. Xalq uni juda sevib hurmat qiladi. O`z farzandlaridek g'amxo`rlik qilishadi.

Biroq ko`p o`tmay otasi chaqirtiradi. U ketish uchun xalqdan ijozat so`raydi. Qishloqning katta-kichik hamma odamlari yig'ilib keladi. Shunda usta nishon xalqqa qarab:

«otalar, akalar, ukalar, men arzimagan sabab bilan sizning qishlog'ingizga keldim. Tuzlaringizni ichdim, izzat-hurmatlaringizni ko`rdim. Meni dehqonchilik qilishga, bog' tutishga o`rgatdilaringiz. Sizlardan men juda xursandman. Endi menga ijozat bersalaringiz o`z qishlog'imga, ota-onam oldiga ketsam. Sizlardan oq fotiha so`rayman» debdi. Shunda qishloq keksalari: «o`g'lim, biz sizdan juda xursandmiz, bizning mushkulimizni oson qildingiz, suvga serob qildingiz, bog'-rog'larimiz qayta ko`kardi, sizdan hech yomonlik ko`rmadik. Otangiz chaqirtirgan ekan ilojimiz qancha. Ota-onangizning oldiga boring, umringizdan baraka toping, badavlat bo`ling, yaxshi qallic uchrasin, bola-chaqali bo`ling. Otangizga, volidangizga bizdan duo deng» - deb javob

beradilar.

Shuningdek «ernazar bilan kishonazar» ertagida akalarining tazyiqi natijasida o`z shahridan chiqib ketgan ernazar, bir shaharga borib kabobpazga shogird tushadi. «shu bozorga bir chol har kuni qatiq olib kelib, sotib ketar edi. Ernazar cholni chaqirib, oldiga non, ikki-uch sih kabobni qo`yib: «ota charchab kelgansiz. Bularni eb, meni duo qiling!» der ekan. Chol ham nonu, kabobni eb: «iloho! Tuproq olsang oltin bo`lsin deb duo qilar ekan».

Bugina emas, alqash bola tarbiyasi yuzasidan oilada ota-ona, tarbiyachi, ustoz va umuman kattalar tomonidan keng qo`llaniladi.

3). Mukofot

Xalq ijodida rag`batlantirishning mukofot shakli ham uchraydi. Lekin, xalq og`zaki adabiyoti namunalarida ba`zi obrazlar — xalq orzu qilgan — adolatli va xalqsevar podsholar, qurbi etgan keksalar, o`z fe`li-atvori va xatti-harakati, donishmandligi bilan ko`pchilikka manzur bo`lgan, keksalarni shuningdek, el-yurt va hukmdorlarni ma`lum bir topshiriq va niyatlarini mardlik va matonat bilan ado etgan yoshlarni mukofotlaganliklari, ularning mehnatini qadrlaganliklari ifodalanadi.

Masalan: «quyosh erining pahlavoni» ertagida rustam ajoyib qahramonliklar ko`rsatadi, azob-uqubatda yotgan xalqni dahshatlardan xalos qiladi. Shunda: «shahar oqsoqoli rustamning peshonasidan o`pib:

«esdalik va yo`lingda hamrohing bo`lsin, deb bobosidan qolgan kamon bilan besh gaz uzunlikdagi o`q-yoyni beribdi. Rustam shahar xalqi bilan xayrlashib, tog` tomon yo`l olibdi».

«g`ulombachcha» ertagida... Podshoga ajdahoning o`lgani rostligini xabar berishibdi. Podsho g`ulombachchadan xursand bo`lib quchoqlabdi: «barakalla, seni o`stirgan ota-onangga rahmat» debdi... Ustidan tilla, ja-

Vohirlar sochibdi, shundan keyin har bir shahar podsholari kelib, u podshoning ajdaho kulfatidan qutilganini muborakbodlabdilar».

Qoralash (jazolash) metodi

Xalqimiz o`rtasida bolalarning axloqiy tarbiyasi yuzasidan qo`llaniladigan qoralash metodi turli shaklda — uyaltirish, koyish, urishish, so`kish, (haqorat), qarg`ish, och qoldirish, uydan haydab chiqarish, oq qilish va jismoniy jazo berish shakllarida qo`llanilgani ma`lum. Biroq xalq og`zaki ijodida asosan qoralash metodining qarg`ish va

jismoniy jazo berish kabi ayrim shakllarigina uchraydi.

Qarg'ish

Qarg'ish ham alqash kabi ma'lum ijtimoiy guruh yoki ayrim kishilar o'zaro shaxsiy adovatda bo'lganlarida, raqibi qarshisida o'zi kuchsiz ekanligini anglab, o'ziga nisbatan qudratli bo'lgan ikkinchi bir kuchning ko'magidan madad tilab murojaat qilish, ya'ni o'sha kuch orqali o'z raqibiga ko'ngilsizlik, baxtsizlik, qayg'uli hollar, hatto o'lim tilaganlar.

Qarg'ishda uchraydigan ayrim iboralar xalqlar o'rtasida qarg'ishning qadimdan davom etib kelayotganligidan dalolat bersa ham, din, shu jumladan islom dini paydo bo'lgach, qarg'ish ham ilohiy kuchning madadiga singgan holda ishlatiladigan bo'ldi.

Qarg'ish ota-ona va umuman kattalarning o'z bolalari yoki begona bolalarga nisbatan qo'llanilib, u ham o'z navbatida bola shaxsi — jismoniy va fe'l-atvoridagi xususiyatlarga ko'ra turlicha ishlatiladi.

Odatda qarg'ish bola tarbiyasida eng ko'p qo'llaniladigan, shu bilan bir vaqtda eng zararli jazo shakllaridandir. Bunday jazo orqali bolalarda ruhiy azob, tushkunlik va alam ortadi. Ota-ona va kattalarning tarbiyachi sifatidagi ta'siri yo'qoladi, kattalar bilan bolalar o'rtasidagi mehribonlikka putur etadi, ahillik va obro' yo'qoladi. Shuning uchun ham xalqimiz:

Ura bersang, eti qotar,

Qarg'ay bersang, beti qotar deydi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarining ko'pchiligida asosan xotin-qizlar tomonidan ishlatiladigan jazo shakllaridan biri qarg'ish ekanligini ko'ramiz.

Afsuski, qarg'ish bola tarbiyasida naqadar zararli metod bo'lishiga qaramay, bizning zamonamizda ham ayrim oilalarda ota-onalar tomonidan qo'llanib kelinmoqda.

Jismoniy jazo

O'zbek xalq pedagogikasi tarixida bolalarga jismoniy jazo berish tarbiya sifatida juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan va ko'p shaklga ega bo'lgan metodlardan biridir.

Tarixda bolalarga nisbatan qo'llaniladigan juda og'ir jismoniy jazo shakllari bo'lgan. Shuningdek, oilada ota-ona va umuman kattalar tomonidan, tarbiya nuqtai nazaridan qo'llaniladigan jismoniy jazo — shapaloq bilan (tarsaki) urish, quloq cho'zish, xivchin yoki qamchi bilan urish, mushtlash, tepish va boshqa og'ir jazo turlari

bo'lganligi ma'lum. Biroq xalq og'zaki ijodida tarbiya yuzasidan faqat shapaloq (tarsaki) urish shakligina uchraydi. Shunda ham uning yomon oqibatlari ochib tashlanadi.

Umuman xalq ijodida jismoniy jazo tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida aslo uchramaydi.

Masalan, «sirli gilamcha» ertagida, mamlakat podshosi bir yigitga bir-biriga bog'liq bo'lgan besh shart qo'yib, shu shartlarni bajarishni buyuradi.

Ulardan biri - uzoq shaharlardan birida bir egarchi yashashi, har yili bittadan egar qilishi va egarga haridor kelishi bilan urib sindirishini; ikkinchidan, bir mamlakatdagi katta qabristonda uzoq yillardan beri bir mo'ysafidni yolg'iz va doimo yig'lab yashashligining sababini bilib kelishini shart qilib qo'yadi. Nihoyat, bola egarchini topib gaplashadi. U: «...turmushimiz yaxshi o'tar, urush-janjalimiz yo'q, rohat va farog'atda yashar edik. O'g'limiz ikki yoshga to'lganda xotinim yana bir o'g'il tug'di. Katta o'g'lim to'rt yoshga, ikkinchisi ikki yoshga kirdi». Shu orada arzimagan narsa ustidan janjal chiqib, egarchi ularni uradi. Qechqurun hovliga kelsa hech kim yo'q emish. Qidirmagan joyi qolmaydi. Biroq ularni topa olmaydi. «shundan buyon kunim o'tsin, shu bilan ovunay, ermak bo'lsin deb egar yasayman. Egarni sotib pulini olishim bilan, xotinim, o'g'illarim bilan kechirgan kunlarim ko'z oldimdan o'taboshlaydi, yaram yangi bo'ladi, yaramga tuz sepgandek bo'ladi-yu, rangim o'zgarib ketadi. Pulni egasiga qaytarib, egarni sindirib tashlagandan keyin hovurim bosilib, bir oz tinchlanaman», — deb egarchi o'z sarguzashtini tamom qilibdi. So'ng yigit qabristondagi cholning oldiga boradi. U: «bir kun nomoz o'qiyotganimda nabiram kelib nomozimni buzdi. Bolam, sen bir oz tashqarida o'ynab yurgin, men nomozimni o'qib olay, keyin ikkalamiz bir joyga boramiz, deb aldab yubordim. O'zim nomozni o'qiy boshlagan edim, yana kelib nomozimni buzdi... Yana buzdi.

Ming aqlli bo'lsa ham, bola bolaligiga boradi-da, bolaga qo'shilib o'zim ham bola bo'lib qolibman... Bir shapaloq urdim.

...mana shu go'rga ko'mganman. Endi pushaymon qilamanki, nima uchun men uni urdim, nomozimni yuz marta buzsa ham, ming marta buzsa ham mayli edi, men nima qildim,— deb yig'layman, foydasi yo'q», deb sirini aytib beribdi.

Ko'rinadiki, tarbiya nuqtai nazaridan qo'llangan jismoniy jazo yaxshi oqibatlarga olib kelmadi. Bolaga nisbatan qo'llangan jismoniy jazo tarbiyada hech qanday foyda keltirmasligi xalq og'zaki ijodi asarlarida ham o'zining badiiy ifodasini topgan. Bir

tomondan, jazo jazolanayotgan bolaga g'oyat og'ir ruhiy va jismoniy azob bersa, jazolovchining ham ruhiy azob va vijdon qiynog'iga tushishiga sabab bo'ladi.

3) Tarbiya vositalari

Xalq ijodi materiallarida bolalarning odob va axloqiy tarbiyasi yuzasidan qo'llaniladigan metodlar bilan birga xilma-xil tarbiya vositalaridan ham foydalanilgani ko'rsatiladi.

Folklor materiallarida uchraydigan axloqiy tarbiya vositalari juda ko'p tur va shakllarga ega bo'lsa ham, asosiy vosita sifatida:

1) bolalar o'yinlari, 2) choyxo'rlik — choyxona gurungi, 3) bolalar gapi — rap eyish, 4) bolalarni kattalar bilan birlikda: a) to'y marosimlari — beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, hovli to'yi; b) sayillar — dala sayli, gul barra (binafsha) sayli, qovun sayli; v) yig'in — tomosha, tug'ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz bazmi (majlisi), kelin salom — yuz ochish (ro'mol obqochish), uloq (ko'kbar) poyga, kurash, turli shakldagi yarashuvlar (musobaqalar); g) aza ma'rakasi; d) safarga chiqish, ovga borish; e) bizning zamonamizda yuqoridagilar bilan (ijobiylari bilan) birga kino, teatr, istirohat bog'i, ommaviy yig'in ham tomoshalarga borish hamda bayramlarni kutib olishda qatnashadilar.

Shubhasiz, bunday davra yoki yig'inlarning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan va hozir ham u juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Binobarin, bolalarning ijobiy yoki salbiy xatti-harakati ko'pchilikning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi va shu ko'pchilik tomonidan baholanadi. Ko'pchilik ota-onalar ham o'z o'g'il-qizlarini ma'rakaga aralashganlaridan keyingina, ko'pchilik o'rtasida o'zlarini qanday tu-tishlariga oid odob va axloqiy qoidalarga amal qilishlarini davra yoki yig'indagilar tomonidan ijobiy yoki salbiy baholaganlaridan keyingina payqab oladilar.

Bu hol ota-onalarni ham o'z tarbiyaviy ishlaridan xulosalar chiqarishga olib keladi. Ko'pchilik tomonidan taqdirlangan bolalarning xatti-harakati ota-onalarni quvontirsa, ta'na va isnodga qolgan bolalarning ota-onasini afsuslantiradi, tashvishga soladi. Chunki bolalarning o'zlashtirish yoki odatlanishi kerak bo'lgan fe'l-atvor ham xatti-harakatlari ko'pchilik xalq o'rtasida qaror topgan umumiy odob va axloq normalari bo'lib, hammani unga amal qilishligi taqozo qilinadi.

Shuning uchun ham bolalarning oilaviy hayotdagi ijobiy yoki salbiy xatti-harakatlarini ko'pchilik oiladagi keksalar (ayniqsa ayollar) umum (ko'pchilik) nuqtai

nazaridan baholab taqdirlaydilar yoki qoralaydilar. Keksalarning «bolam, (o`g`lim, qizim) seni bu yurish-turishingni ko`rganlar, gap-so`zingni eshitganlar, xursand bo`ladi, «palonchining bolasi aqlli, odobli ekan» deb o`zingni maqtashadi, duo qilishadi», yoki «bolam, (o`g`lim, qizim) seni bu yurish-turishingni ko`rganlar, gap-so`zingni eshitganlar nima deydi?! Mahalladagilardan uyat emasmi? Bizni uyatga qo`yding-ku (sharmanda qilding-ku)» degan jumalari ham ana shu ko`pchilik nuqtai nazaridan baholanishlarining dalilidir.

Demak, ma'lum bir bolalar davrasi yoki yig'in (o`rtoqlar guruhsi, mehmondorchilik, to`y-tomosha marosimlari va hokazo) va shu yig'inni kuzatuvchi kattalar yig'indagi har bir bolaning xatti-harakati yuzasidan ijobiy yoki salbiy fikr yuritish, xulosalar chiqarishda asosiy faktor bo`lgani kabi, yana o`sha yig'in shu davradagi bolalarni tarbiyalab etishtirishdagi muhim omillardan biri bo`lib ham xizmat qiladi.

Yuqorida ko`rib o`tganimiz kabi bolalar davrasi yoki yig'inning turi ko`pdir. Shu jumladan, bolalar o`yini ham juda ko`p shaklda ko`zga tashlanadi. Lekin bolalar o`yining hammasida barcha o`yinlar uchun umumiy bo`lgan qoidalar birligiga amal qilinadi. Shu qoidalarga amal qiluvchi bolalar ayni paytda, intizomli, yaxshi o`yinchi bolalar hisoblanib, aksincha o`yinni buzuvchi, zo`ravonlik qiluvchi, o`yin jarayonida o`rtoqlarini haqorat qiluvchi, manmanlik yoki maqtanchoqlik qilib, o`yindagilarni ranjituvchilarni ko`pchilik o`yindan haydab chiqaradi. Uni «o`yin buzuqi» deb atab, galdagi o`yinga aralastirmaydilar.

Shunga o`xshash o`smir yoshdagi bolalarning choyxo`rlik — choyxona gurungining ham o`ziga yarasha qoidasi bor. Ya'ni choyxonaga navbat bilan taklif qilish, choyxonadagi kattalardan yuqoriga o`tib ketmaslik, odamlarga teskari o`tirmaslik, o`rtoqlar o`rtasidagi hurmatli bolani to`rga o`tqazish, bir-biri bilan samimiy muomala, munosabatda bo`lish, so`zlovchining gapini bo`lmaslik, navbat bilan gapirish, navbat bilan choy quyish, choyni ma'lum me'yorda quyish va o`ng qo`l tarafdin muloyimlik va tabassum bilan uzatish, patnisdagi masalliqni teng baham ko`rish, bir-birini choy va masallig'lardan olib o`tirishga undash, o`rtaga tashlangan masalalar yuzasidan bir fikrga kelish va uni qo`llab-quvvatlashdagi hamkorlik va hokazo.

Davruga yangidan qo`shilgan bolaga o`rtoqlari tomonidan yuqoridagi qoidalar istisnosiz o`rgatiladi. Aksincha, ko`ra-bila turib qoidani buzuvchilar qattiq kulgi

tanbehiga olinadi. Tanbehlar kor qilmasa, davraga qo`shmay qo`yadilar va hokazo.

O`smirlarni yuqoridagi kabi ma'lum bir davrada davomli qatnashuvlari «bolalar ulfati»ni tashkil qilardi. Binobarin, o`smirlarning eng yaxshi fazilatlarini ham, yomon xatti-harakatlari ham ko`proq choyxona va boshqa yig'inlarda namoyon bo`lar, ma'qullanar va yoki qoralanar edi. Zamonasida choyxona gurungi yoki boshqa shakldagi ulfatchiliklarda qatnashgan o`smirlar xalq o`rtasidagi odob qoidalarini ham yaxshi o`zlashtirib olgan bo`lardilar. Shuning uchun ham zamonasida, hatto hozirgi kunda ham, yoshlarning fe'l-atvoriga nisbatan baho berishda keksalarimiz tomonidan: «ulfat ko`rgan yigit» iborasining ishlatilishini tez-tez uchratish mumkin.

Xuddi shu haqda xalq qo`shiqlarida bunday deyiladi:

Ot chopilsa kulo-tuzdan,

Naql so`z eshiting bizdan.

Axloqsiz bo`p o`sgan qizdan,

Majlisdagi qo`pol so`zdan,

Indamay ketgan yaxshiroq.

Xalq og'zaki ijodi materiallarida eng ko`p uchraydigan va bola tarbiyasida muhim o`rin tutgan odob va axloqiy tarbiya vositalaridan biri mehmondorchilikdir.

Avvalo shuni aytish kerakki, mehmondorchilik va mehmondo`stlik xalqimiz tarixida uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan eng olijanob insoniy odatlardan biri bo`lib davom etib keladi va davom etib kelmoqda, bundan keyin ham shunday bo`lib davom etishligiga shubha yo`qdir.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan marosim, yig'in, to`y-tomosha kabilarning hammasi turli shakldagi mehmondorchilik ko`rinishlarini o`z ichiga oladi.

Mehmondorchilik tor ma'nosiga ko`ra, alohida tayyorgarlik bilan, ma'lum bir guruh kishilar ishtirokida o`tkaziladigan ziyofatdir.

Shunday qilib, xalq pedagogikasi yoshlarni insoniy fazilatlar bilan tarbiyalab etishtirishda turli metod, usul va vositalardan foydalangan.

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashda xalq pedagogikasidan foydalanish

Ekologik tarbiya deganda esa ukuvchilarga berilishi lozim bulgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. **Ekologik tarbiya** esa insonning atrof – muxitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta'lim - tarbiyadan bosh maksad yosh avlodda atrof – muxit, uning muommolariga ongli munosabatni shakllantirish.

Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlar tabiat boyliklarini tejab – tergashga, tabiatni muxofaza kilishga urgatila boriladi.

Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi. Ekologik dunyo karashning shakllanish negizi oila tarbiyasiga boglikdir.

Ajdodlarimiz bolalarga atrof – muxitga xurmat, bodonchilik va kukalamzorlashtirish xissini sabot bilan singdirishgan.

Masalan: atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni aloxida chukurlarga tashlash, xojatxonalarni arik, soy, bulok suvlaridan uzokrok joyda kovlash, yongin chikmaslik chorasini kurish, kukarib turgan daraxtni kesmaslik, nixollarni sindirib paymon kilmaslik, kushlarning uyasini buzmaslik kabi odatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uni iflos kilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib baxra oladi».

Gullab turgan mevani daraxtlarning shoxini sindirma, u meva beradi, uni uzing eysan, «Pishib etilmagan uzumni uzma, agar uzsang kata gunox shu buladi, chunki unda axli muminning nasibasi bor.» deb pand – nasixatlar kilganlar.

Xozir ekologik tarbiya saviyasi past. Mollarni ekinzorlarda (boglarda) bokishadi. Utmishda xalkimiz karamogidagi xayvonlarga maxsus podachi saklagan, yoki navbat bilan bokishgan.

Oilaviy dam olishga chikishganda daraxtlarga, usimliklarga, xayvonlarga zarar keltirilmagan. Ëshlarni ekologik tarbiyalashda milliy anana va udumlarni kayta ishlashga kata e'tibor berilmokda.

Bolalarni ekologik tarbiyalashda xalk ogzaki ijodining ta'siri katta. Xalk ertaklarida bolalar ajdodlarimizning ekologik xatolari nimalardan iborat ekanligini, ularning ibratli ishlarini urganadilar. Ukuvchilarga aytiladigan ertaklarda xayvonlar va usimliklarning xususiyatlari, ularning tabiatdagi urni ochib beriladi. Xayvon va

usimliklarga bulgan notugri munosabat natijasida juda noyob xayvon va usimliklarning nomlari «Kizil kitob» ga kiritilgan. Kurikxonalar ochilgan.

Ukuvchilarni tabiatni muntazam kuzatib borishga, kizikishga, tabiat ximoya kilish uchun kurashishga, uning guzalligini asrab avaylashga urgatish lozim.

Kadimgi mukaddas kitobimiz «Avesto»da er, suv, zamin, xona, badan kiyim – kechak, ozik – ovkatlarni toza tutish va ishlashga aloxida e'tibor berilgan. Unda guristonlarni shaxar va kishloklardan yirokda joylashtirish, uni urab kuyish, murda tekkan libos, erlarni katron kildirish xususida foydali maslaxatlar mavjud. Inson yoki xayvon uligi tushgan soy, arik, xovuz, kuduklarni bir necha katron kilish takidlanadi.

Ut – ulanlar va mevali daraxtlar ekilgan, suvlari ravon bulgan zamin eng yaxshi erdir. Ayol va farzandlari sarson - sargardon ioradigan er eng yomon zamindir. Erni iflos kilgan va uni saklash koidalarini buzgan shaxslar «40 kamchi urush jazosiga» girifton kilingan.

Inson yashayotgan xonada iovinish va chumilish katian man etilgan. «Avesto» da uy jonvorlarini extiyot kilishga chakirish kuchli.

O'zbek xalki azaldan guzallikning, tabiatning xakikiy shaydosi bulgan, uni e'zozlagan va ardoklagan. Xar kandy guzallikdan zavklangan, guzallik yaratishga intilgan.

Bolalarda guzallik tugrisidagi tushunchalar ularni urab turgan tevarak atrofdaagi turmush ayilari: kiyim – kechak, uyinchoklar, oila a'zolarining uzaro madaniy samimiy munosabatlari, saranjom xoali, gulzor: san'at asarlari musika, ashula, rasm asosida tartib toptiriladi. Oila guzallikning birinchi maktabi, oila a'zolarining uzaro munosabati, uyning jixozlari, usha narsalarning uygunligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom – sarishtalikning bolaning guzallikka munosabatini tarbiyalaydi.

M: «Utkan kunlar» romanida IOsufbek xoji yoki Mirzakarim kutidor joilasi, ularning uzaro munosabatlari, IOsufbek xojining Kumushbibi va Zaynabga bergan nasixatlari, Kumushbibining onasi Oftoboyga yozgan maktublari..... Ulim oldidan Kumushbibining kaynotasidan uyalishi. Bular xammasi kishilar urtasidagi munosabat guzalligi suzlashish madaniyatini kuraylik. Eri xotiniga «begim» yoki Xotin eriga

M-n «IOlduzli tunlar» romanida Bobur onasiga, onasi shox ugliga «amirzodam» deb, Xonzoda begim ukasiga «amirzodam» deb murojaat kilishadi. Suzlayotgan kishi uzini «fakir», «kamina» deb, uzgalarga «mavlon» deb murojaat kilishgan. Vodiylıklar

xatto uz bolasiga xam «Siz» deb murojaat kilgan. Kiyinish buyicha xam uzbek xalki uziga xos udimga, rasm – rusumga rioya kiladi. Uziga xos kiyinish madaniyatiga ega. M: Tuyga, mexmonga, ishga borganda kiyiladigan kiyimlar, ozoda kiyiladigan kiyimlar.

Mexmon kutish madaniyati: Uy, xovli joylar tozalangan, yangi kurpachalar tushalib, yangi yostiklar kuyilgan, yangi dasturxonlar yozilgan, chiroyli idishlar ishlatilgan, toza sochik berib, kuliga suv kuyilgan. Mexmonning xurmatini joyiga kuyib, u uchun xamma kulayliklar yaratilgan. Mexmon xam uzini kamtar, sipo tutgan. Mezbon mexmonga tavozi bilan kul kovushtirib, uta iltifotli bulgan. Mexmon kutganda xatto mezbon xam yaxshi kiyinib olgan. Mexmon oldida bolalarni urushmagan, ovozini kutarmagan, odob doirasidan chikmagan. Ësh kelinlar urnidan turib, kulini kuksiga kuyib sal egilib choy uzatishgan. Mexmonga borganda suklik, ochkuzlik, beodoblik kilmay, uzini uta sipo tutishgan, ovkatlanish koidalariga rioya kilishgan. Bular xammasi mulokot, uzini tutish, ovkatlanish madaniyati, ya'ni guzalligidir. Anna shu guzallikdan xalkimiz zavklangan. IIIu zavk bilan kelin tanlashgan, kuda – anda bulishgan.

Ovkatlanishda yoshi kattalar boshlashgan, dasturxon atrofida xam yoshiga, mavkeiga karab utirishgan. Gapirganda xam yoshlar kattalarni gapini bulishmagan, lukma tanlamey, jim turib, navbat kutishgan. IIIuning uchun xam dono xalkimiz: Xusn tuyda kerak, akl kunda kerak deyishgan. Ëki: Suz chimildik, akl kelindir.

Bu xakda shark mutafakkirlarining fikrlari xam goyat ibratlidir.

Masalan: Ibn Sino: Яxshi va yomon xulkning xammasi sharoit, tarbiya, odatlanish, natijasija vujudga keladi. Ochkuzlik, yaxshi ovkat, ichkilik, xotin xalatga berilishdan uzini tutish **iffat** sanaladi.

Kishini kabik va bemaza ishlarga kadam kuyishdan tutib turadigan va uni yaxshi ishlarga yullashiga **xayo** deyiladi.

Ërdam berishning guzalligi undan kishining kasallik topishida kurinadi.

Xulklarning barchasi uz tabiati bilan guzal, yomon xulk atvorlarga esa keyin erishilgan buladi. Guzal xulk atvorlar odatlanishdan iuzaga keladi.

Maxmud Koshgoriy: Uglim, senga meros kilib, ezgu xulk, odobni koldiraman deydi.

Milliy tarbiyamizda turt narsa: er, suv, tuprok, xavo mukaddas narsa xisoblangan. Xalkimiz juda kadim zamonlardan suvga etikot kuyishgan. Xar tomchi suvni kadrlab bog – roglar yaratishgan.

Xadisda xam ekologik tarbiyaga aloxida etibor berishgan.

Masalan: Soyasidan xalk foydalanib turgan daraxtni kesib ioborgan odamni tangri duzaxga maxkum etur. «Dexkonchilik bilan shugullaninglar, dexkonchilik muborak kasbdir. Unda kurikchilarni kupaytiringlar». «Kaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt utkazsa, sung uning mevasidan kush yoki xayvon esa, uning ekinidan ekilgan xar biridan unga saadaka savobi yoziladi».

Xadis misolida bagri kenglik, jonzodlarni asrash zarurligi goyasi uluglanadi.

Ekmak niyatida kulingizda kuchat turgan paytda bexosdan kiyomat koyim bulishi anik bulganida xam ulgursangiz, uni ekib kuyavering. «Kim suv toshkinini tuxtatsa yoki yonginni uchirsa, unga shaxidlik ajri beriladi» kabi xadislarda ekologiya va tabiat muxofazasiga oid tushunchalar bordir. Demak, ota - bobolarimiz azal – azaldan tabiatga ioksak mexr va extirom kursatishgan.

IOrtni obod etishgan, kuchalarni xovlilarni sarishta saklashgan. Xalkimizning tabiatga munosabati ulug kadash, kovun sayli, suv sayli, uzum sayli, xosil bayrami, gul bayrami, navruz bayrami, xirmon kabi bayramlarida xam ifodalangan. Bunday tabiat bayramlari ularning xayot tarzlariga aylanib ketgan.

Ekologik tarbiya berish uchun qyllaniladigan bayramlar:

QOVUN SAYLI, UZUM SAYLI, ANOR, ANJIR SAYLLARI, TABIAT VA MEHNAT BAYRAMLARI.

Avgustning oxiri.

BAYRAMNING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI.

qadimgi hosil yig`ish odatlari asosida shakllangan. Turli nomi va bog` mahsulotlari pishganda dehqonlar o`z yaqinlari, qo`shnilari, qarindoshlarini chaqirib, ularni o`z hosillari bilan siylagan, qariyalarning duosini olgan.

qovun ekkanlar — «qovun sayli», uzum ekkanlar — «Uzum sayli» o`tkazib kelishgan. Pishiqchilik mavsumida hashap va Bog` sayllari ham uyushtirilgan.

ZAMONAVIY MAZMUNI VA TASHKILY SHAKLLARI.

Pishiqchlik davrida qishloq, dala-bog`larda boshlanib, shahar bozorlari, maydonlarda va madaniy bog`larda sodir bo`ladigan meva ko`rgazma — savdolari, tomoshalar, sayllar, «Kimning mevasi shirin» nomli ko`rik-konkurslar.

5. 22 sentyabr — MEHRJON — (Kuz bayrami) Bu bayramning qadimiy nomlari: Xorazmda «Chiri-ruj», Sund — Camapqandda — «Nim-sarda».

BAYRAMNING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI.

Eng qadimgi metr (quyosh)ga sig`inish odatlari va kuz (hosil) marosimlari asosida taxminan 2-3 ming yil muqaddam vujudga kelgan. U kuzni kun va tun tengligini, hosil yig`ish yakunini, qishga tayyorgarlik ko`ra boshlash kabi hodisalarni aks etgirgan bayram. Tarixda 10-15 asr mobaynida Navro`zdan so`nggi ikkinchi katta bayram hisoblangan, yil yarmo vazifasini ham o`tagan. O`rta asrlarda turli bayramlarga bo`linib ketgan.

ZAMONAVIY MAZMUNI VA TASHKILY SHAKLLARI.

Xozirgi kunda kuz bayrami, ko`zgi tun va kun tengligi, an'anaviy (eski) «yil yarmi» mehr-shavkat tadbirlari sifatida tabiiy sayllarda, madaniy bog`larda, o`yingohlarda, maydonlarda turli ko`rgazmalar, ko`riklar, tomoshalar, musobaqalar, sayllar kabi shakllardan foydalanib o`tkazilsa bo`ladi.

Respublikamiz mustakillikka erishgandan sung bu diyorni obod etish uning atrof – muxitini ozoda saklash xar bir fukaroning insoniy burchiga aylandi. Obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xush xulklik va xushmomilalik xar bir inson uchun, pedogolar va ukuvchilar uchun xam ekologik manaviy mezondir.

Ekologik tarbiya jarayonida ukuvchilar tabiat xakida tushuncha tabiiy muxit, tabiiy omillar xakida tushunchaga ega bulishi zarur. Tabiat boyliklaridan tejab kelgan foydalanish, ularni muxofaza kilishni urganishlavri zarur. Atrof - muxitni ifloslanishidan saklashlari lozim. Tabiatni kelajak avlodlari uchun tabiiy xolda koldirishga xarakat kilish kerak

2.3. Tayyorlov guruhida ekologik tarbiya berish shakllari.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tayyorlov guruhida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda, hamda mehnatda amalga oshiriladi.

1. Mashg'ulotlar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan mashg'ulotlarda bolalarda dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum bir tartibda rivojlantiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig'ilib boradi. Mashg'ulotlar ularga aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi.

Bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg'ulot turi, uning asosiy maqsadiga ko'ra tanlanadi.

Mashg'ulotlarning bir xillarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rish, badiiy asarlarni o'qish, hikoya, diafilm va kinofilmlarni ko'rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bilimlar kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi.

Aytib o'tilgan metodlardan tashqari bu mashg'ulotlarda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Uchinchi turdagi mashg'ulotlarning asosiy vazifasi — bilimlarni umumlashtirish hamda bir tizimga solishdir. Shuning uchun suhbatlar, didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi kuzatishlardan foydalaniladi. Bolalar egallagan bilimlarini mehnat va o'yinlarda amalda qo'llaydilar.

Mashg'ulotlar kichik va o'rta yosh guruhlarda bir oyda 2 martadan, katta guruhlarda esa haftada 1 martadan o'tkaziladi. Ekskursiyalar o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Barcha guruhlarda qo'shimcha sifatida maqsadli sayrlar o'tkaziladi.

Mashg'ulotga tayyorlanish. Mashg'ulotning samaraliligi tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Tarbiyachi mashg'ulot mavzusini va ahamiyatini belgilab, mavzu bo'yicha tabiatshunoslik bilimlarini to'ldirishi, so'ng mashg'ulot vazifalarini dastur asosida ishlab chiqishi lozim.

Bunda tarbiyachi «Uchinchi mingyillikning bolasi» dastur vazifalariga, bolaning qobiliyat darajasiga hamda tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga tayanadi. Mazkur mashg'ulot mazmunini tanlashda uning ish tizimidagi o'rni (mashg'ulotda boshlang'ich bilimlarni

shakllantirish jarayoni sodir bo'lyaptimi, yoki ular boyitilib bir tizimga solinyaptimi, bilimlarni qo'llash mashq qilinyaptimi va shu kabilar)ni aniqlash lozim. Bu o'rinda tarbiyachi darsning maqsadi va mazmuniga qarab turli metodlarni qo'llaydi.

Tarbiyachi qanaqa metod va uslublar tanlamasin ulardan kompleks, birbirini to'ldirgan holda foydalanishi, bu asosiy maqsad — o'rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarning bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiat haqidagi tushunchalarning to'g'ri shakllanishiga xizmat qilishi kerak.

Mashg'ulotda hal etiladigan tarbiyaviy vazifalar tabiatga ijobiy, ehtiyotkorona, g'amxo'rona, estetik munosabatlarni shakllantirishga yo'llanadi.

Mashg'ulotga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda uning tuzilishini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy obyektning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Masalan, yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimni shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilmlar ko'rsatish orqali, tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma'qul. Kichik yoshdagi bolalar mashg'ulotlarida kuzatish, o'yin metodlaridan foydalaniladi. Og'zaki metoddan, asosan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda foydalaniladi.

Tanlangan metod dastur vazifasining to'liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini ta'minlashi lozim.

Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan o'qitish metodlarining xilma-xilligi tarbiyachidan puxta sharoit yaratishni talab qiladi: hayvonlar, xonaki o'simliklar, rasmlarni ko'rish uchun bolalar yarim doira qilib o'tqaziladi. Bu bolalarning mashg'ulotda faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Agar mashg'ulotda tarqatma materiallardan foydalanilsa, ya'ni har bir bolaning qo'lida kuzatish ob'yekt bo'lsa, bolalarning o'z stollari atrofida o'tirganlari ma'qul. Ba'zi guruh xonasida mehnat malakalarini tarbiyalashga bag'ishlangan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday holatda bolalarni to'rtburchak shaklida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shunda bolalar tarbiyachi ko'rsatadigan ish usullarini yaxshiroq ko'rishga ega bo'ladilar.

Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazishdan oldin bir qancha ko'rgazmali qurollar, yani jonli va jonsiz tabiat jismlari (gerbariylar yil fasllari, tabiat manzaralari tasvirlangan kalendarlar, toshlar foydali hasharotlar, o'simliklar va ularning qismlari, mayda hayvoi va boshqalar)ni tayyorlab qo'yadi. Chunki ko'rgazmali qurol bolalarga o'rganilayotgan

narsani bir necha sezgi a'zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya'ni ular narsani ko'ribgina qolmasdan, uning xususiyatini (masalan, tirnab ko'rish, bolg'ach bilan urib ko'rish orqali narsaning mo'rtligini, egish bilan qayishqoqligini, egiluvchanligini va hokazo) sinaydilar.

Mashg'ulot, asosan, quyidagi tartibda olib boriladi:

- ish maqsadini e'lon qilish;
- tarbiyachining yo'l yo'riqlar berishi;
- topshiriqni tushuntirish;
- ko'rgazmali qurollar ustida ishlash;
- kuzatish;
- o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish — suhbat;
- xulosa chiqarish;
- rasmlar chizish.

Mashg'ulot so'ngida tarbiyachi bolalarning malaka va ko'nikmalarini, ularning mashg'ulotga munosabatlarini, qiziqishlarin pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning differensiyalashuv bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

2. Ekskursiya

Ma'lumki, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyach xilmaxil: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llaydi U o'simlik va hayvonlarni, ularning yashash sharoitlarini namo yish qiladi. Bu narsalarni oddiy mashg'ulotlarda ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun tabiat bilan tanishtirish metodikasida mashg'ulotlarni to'ldiruvchi maxsus shakllar qo'llaniladi.

Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi mashg'ulotlar turidan biridir. U tabiat bilan tanishtirish metodlarining ko'rgazmali metodiga kiradi. Ekskursiya vaqtida bola tabiat hodisalarining mavsumiy o'zgarishlarini tabiiy sharoitda kuzatishi, tabiatning insonning hayot va talablariga muvofiq o'zgarayotganini hamda atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risida bilimlar to'plashga imkon beradi.

Ekskursiya mashg'ulotlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o'simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitda ko'rish, hamda tabiatda mavjud bo'lgan o'zaro aloqalar haqida dastlabki dunyoqarash, tasavvurlarini, olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tarbiyachi rahbarligida o'rmon, dala, daryo va ko'l qirg'oqlariga uyushtirilgan ekskursiya bolalarning diqqatini jalb qiladi, tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlarga xilmaxil material to'plashga sharoit yaratadi. Ekskursiyalarda bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o'rganishga qiziqish o'sadi. Ular narsalarni sinchiklab kuzatish va uning xarakterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar.

Tabiatning go'zalligi bolalarda estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda boiish shakllanadi.

Ekskursiyalar mazmuniga ko'ra shartli tarzda ikki turga bo'linadi: *tabiatga uyushtiriladigan ekskursiya* — bog', o'rmon, daryo, o'tloq, shuningdek, hayvonot bog'i, botanika bog'iga (bular turli mavsumda o'tkaziladi) ekskursiyalar hamda *qishloq xo'jalik ekskursiyasi* — dala, parrandachilik fabrikasi, bog', ekinzor va shu kabilarga kattalarning mehnati bilan tanishish maqsadida uyushtiriladigan ekskursiyalar.

Ekskursiya mashg'ulot turi sifatida o'rta, katta hamda tayyorlov guruhlarida o'tkaziladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi.

Tarbiyachining ekskursiyaga tayyorlanishi. Tarbiyachi ekskursiyani rejalashtirar ekan, ekskursiya mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi, ekskursiya o'rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ulardiqqatini asosiy maqsaddan chalg'itmaydigan) yo'lni belgilaydi. Ekskursiya o'rnini tanlashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan ekskursiyalar kichkintoylar uchun faqat yaqin masofalargagina uyushtirilishi mumkin), shuningdek mavsumni, yo'lning xususiyatlarini, ob-havo holatini hisobga olish zarur.

Ekskursiya uyushtiriladigan joy tarbiyachiga qanchalik tanish bo'lmasin, u bir-ikki kun oldin o'sha joyni ko'rib chiqishi lozim. Boiajak ekskursiya joyida bo'lgan tarbiyachi marshrutni aniqlaydi, kerakli obyektlarni topib, bolalar kuzatishlarni mustaqil olib borishlari hamda dam olishlari mumkin bo'lgan joyni belgilaydi.

Ekskursiyani o'tkazishdan oldin tarbiyachi uni o'tkazish usullarini atroflicha o'ylab ko'radi va ekskursiya qiziqarli o'tishi uchun oldindan she'r, topishmoq, maqollarni tanlab ulardan foydalanadi.

Bolalarni ekskursiyaga tayyorlash. Ekskursiyadan bir necha kun oldin bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otish, tasavvurlarni jonlantirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o'tkazadi, ya'ni ekskursiya vazifalarini qo'yadi, topshiriq va vazifalarni

taqsimlaydi, ekskursiyadagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek anjom-aslaha va jihozlarni tayyorlaydi.

Tabiatshunoslik ekskursiyasi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi kirish suhbat, kollektiv bo'lib kuzatish, bolalarning individual mustaqil kuzatishlari, tabiatga oid materiallarni to'plash, bolalarning dam olish vaqtida to'plagan materiallar bilan o'ynashi va yakuniy qismlarni o'z ichiga oladi. Bolalarni ekskursiya o'tkaziladigan joyga olib kelgandan so'ng tarbiyachi qisqa suhbatda ekskursiyaning maqsadi va vazifalarini eslatadi. Shundan so'ng ular tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga o'tadilar.

Ekskursiyaning asosiy qismi — kollektiv kuzatishdir. Bunda mashg'ulotning asosiy qismi hal qilinadi. Tarbiyachi bolalarga narsa va hodisalarning xarakterli xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. Bunga turli usullar (savol va topshiriqlar, she'rlar, tadqiqotchilik harakatlari, o'yin usullari)ni qo'llash orqali erishiladi. Tarbiyachi kuzatishlarni o'z hikoyasi hamda tushuntirishlari bilan toidiradi.

Kuzatishda asosiy e'tibor jism va hodisalarni yaxshilab ko'rishga, ularni qiyoslashga, tabiat hodisalari o'rtasidagi aloqa larni aniqlashga yordam beradigan savol va topshiriqlarga qaratiladi.

Kuzatish jarayonida hikoya, she'r va topishmoqlarni qo'llash foydalidir. Ekskursiya jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bunda og'zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish) ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi.

Ekskursiyaning asosiy qismi tugagach, bolalarning individual mustaqil kuzatishlarga qiziqishlarini qondirish va tabiatshunoslikka oid materiallarni to'plash uchun imkoniyat berish zarur. Biroq material to'plash uchun topshiriq berishda, to'plangan material miqdorini qat'iy cheklash lozim, bu bolalar e'tiborini faqat ma'lum o'simlik va hayvonlarga qaratish va bundan tashqari tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalash uchun ham kerakdir.

Bolalar mustaqil ishlayotgan vaqtda, tarbiyachi ham yordam berib turishi lozim. Ba'zan o'simlikni qanday kavlab olishni, quruq novdani qanday qirqishni va shu kabilarni ko'rsatib turishi kerak.

Dam olish vaqtida to'plangan materiallar saralanadi, jildlarga, savatchalarga joylanadi, ba'zilaridan o'yin va mashqlarda foydalaniladi.

Qishloq xo'jalik ekskursiyasi. Qishloq xo'jalik ekskursiyalari xilmaxildir: dala (yer haydash, ekish, hosil to'plash), o'tloq (mol boqish, hashak o'rish) bog', ekinzor, mevazor,

ferma, botanika bog'i, issiqxona, parrandachilik fermasi va shu kabilarga ekskursiyalardir. Ekskursiya insonning tabiatga ta'sirini, ya'ni o'simliklarni o'stirishni va hayvonlarni boqishni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish imkonini beradi. Bu yerda bolalar asosiy mehnat jarayonlarining bir nechtasi bilan tanishadilar.

Ekskursiyalarning o'ziga xosligi shundaki, bola inson faoliyatini ham, u ta'sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin.

Qishloq xo'jalik obyektiga uyushtiriladigan ekskursiya suhbat bilan boshlanadi. Qishloq xo'jalik ekskursiyalariga tayyorlanishda tarbiyachi kuzatish objekti bilan oldin o'zi tanishadi, ekskursiya o'tkazish uchun ruxsat oladi, ekskursiya vaqti, bolalarning mehnatda qatnashishlari haqida kelishib oladi va bolalarning ma'lum ishda band bo'lgan kattalar bilan bo'ladigan suhbatining mazmunini belgilaydi. Ekskursiya yakunida mazkur obyekt ishi haqidagi taassurotlar umumlashtiriladi.

Ekskursiyadan keyingi ish. Ekskursiyada olingan bilimlar mashg'ulotlarda, o'yinlarda, tabiat burchagida o'tkaziladigan kuzatishlarda kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Ekskursiya vakunida to'plangan materiallarni tabiat burchagiga joylashtirish (masalan, o'simliklarni vazalarga, gul tuvaklarga solish, jonivorlarni akvarium, terrarium, sadaklarga joylashtirish), o'simlik va hayvonlarni kuzatuv ostiga olish zarur. Ekskursiyadan 23 kun o'tgach, tarqatma material, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasaladi, tabiiy materiallardan foydalanib didaktik o'yinlar, mashg'ulotlar o'tkaziladi. Badiiy adabiyotlar o'qiladi, boialarning ekskursiyadan olgan taassurotlari haqidagi hikoyalari tinglanadi. Mashg'ulot yakunida umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi.

Tabiatshunoslik ekskursiyalari ma'lum tizimga muvofiq o'tkaziladi. Ularni tabiatda bo'ladigan mavsumiy o'zgarishlarga qarab ayni bir obyektning o'ziga yilning turli fasllarida uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, bahor mavsumida maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan vazifalarni astasekin murakkablashtirgan holda istirohat bog'iga 3 marta ekskursiya uyushtirish lozim.

Bu ekskursiyadan maqsad — bolalarni bahorgi o'zgarishlar bilan tanishtirish, ularni ko'rish hamda tabiatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning sababini tushunish ko'nikmalarini o'stirishdir.

Qishloq xo'jalik ekskursiyalarini kattalar mehnatining ayrim turlari bilan tanishtirish maqsadida epizodik tarzda o'tkazish lozim.

Ekskursiyani uyushtirish guruhdagi mashg'ulotni uyushtirishga qaraganda qiyinroqdir, shuning uchun uning muvaffaqiyatli o'tishi tarbiyachi va boialarning puxta tayyorlanishlariga bog'liq bo'ladi.

Tabiat burchagi

Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish u bilan doimo bevosita munosabatda bo'lishni talab qiladi. Buni ta'minlovchi shartlardan biri bolalar bog'chasida jonii tabiat burchagiga ega bo'lishdir. Bolalarni tabiat bilan uzviy, davomli va sistemali tarzda tanishtirish ularda jonii tabiat burchagida yashovchilar haqida chuqur va puxta bilimlarni, mehnat, malaka hamda ko'nikmalarni hosil qilish, kuzatuvchanlikni o'stirish uchun sharoit yaratadi. Ana shu malaka va ko'nikmalar asosida tabiatga ehtiyotkorona munosabat ham, unga qiziqish ham tarbiyalanadi.

Tabiat burchagi bolalarning diqqatini burchakda yashovchi bir necha hayvonlarga, ularning o'ziga xos belgilariga qaratish va shu bilan bolalarning chuqur, mustahkam bilimga ega bo'lishlariga imkon yaratadi. Tabiatda bolalar uchratadigan hayvon va o'simliklarning xilma-xilligi ular hayotidagi umumiy, ahamiyatli hamda qonuniy tomonlarni ajratib ko'rsatishni qiyinlashtiradi. Cheklangan miqdordagi maxsus tanlangan ob'yektlar bilan tabiat burchagida tanishtirish bu murakkab hamda muhim vazifani hal etish imkoniyatini beradi. Tabiat burchagida yashovchilarning fazoviy yaqinligi ham ahamiyatlidir. Bolalar, masalan, akvariumdagi baliqlarni yaxshilab ko'rish, ularni uzoq muddat davomida kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Joni tabiat burchagi uchun o'simlik va hayvonlarni tanlashda bir qator talablarni nazarda tutish lozim. Ular quyidagilardir:

1) o'simlik yoki hayvon u yoki bu ekologik guruhga xos bo'lishi lozim. Bunda bolalarni o'simlik va hayvonlarning katta guruhi uchun xarakterli bo'lgan, asosiy, o'ziga xos belgilari, yashash sharoitlari bilan tanishtirish imkoni yaratiladi;

tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish, qilinadigan mehnatning sifati, xarakteri, unga sarflanadigan kuch va vaqtiga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga mos(tarbiyachining ishtiroki va rahbarligi ostida) bo'lishi lozim. Shuning uchun «beor» o'simliklar va ovqatni tanlamaydigan hayvonlar tanlanadi;

3) tabiat burchagidagi hayvon va o'simliklar tashqi ko'rinishidan yorqin, jozibador,

maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hali unchalik barqaror bo'lmagan diqqatini o'ziga jalb qila oladigan bo'lishi kerak;

4) tabiat burchagida bu turdagi o'simlik va hayvonlarning bir necha xili mavjud bo'lishi lozim. Chunki bolalar kuzatish ob'yektida faqat umumiy belgilarnigina emas, balki o'ziga xos xususiyatli belgilarni ham ko'ra olishlari kerak. Bu bolalarning tirik organizmlarning xilma-xilligi hamda takrorlanmasligini bilib olishlariga yordam beradi;

5) tabiat burchagida o'simlik va hayvonlar tamoman xavfsiz bo'lishi, bolalarning sog'liqlariga hech qanday zarar yetkazmasligi lozim;

6) o'simlik va hayvonlarning bolalar muassasasi binosidagi hayot faoliyati, o'sishi va rivojlanishida binoning doimiy haroratini, karbonat angidrit gazining konsentratsiyasini, quruqligini, shovqinsuronning mavjudligini hisobga olish lozim.

Hayvon va o'simliklarni tabiat burchagiga joylashtirishda, birinchi navbatda, ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlariga e'tibor berish lozim. Masalan, ba'zi xona o'simliklari (chiroqqul, kaktus va boshqalar) quyosh nurini ko'proq bo'lishini talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug' joyga qo'yish lozim, ba'zilari esa (masalan, uzambarg gunafshasi) tik tushib turuvchi quyosh nuriga bardosh bera olmaydi. Shu bilan birga jonli tabiat burchagi ko'zni quvontirishi, bezashi lozim. Bunda, ob'yektlarni shunday joylashtirish kerakki, bolalar ularning yoniga bemalol kela olishlari, kuzata olishlari va unda mehnat qila olishlari mumkin bo'lsin.

Tabiat burchagida yashovchilarni doimiy va vaqtincha yashovchilarga ajratish mumkin. Doimiy yashovchilarga xona gullari, qafasdagi qushlar, akvariumdagi baliqlar, katta guruhlarda esa hayvonlar kiradi. Vaqtincha yashovchilarga qisqa muddatga olib kiriladigan mahalliy o'lka o'simligi, hayvonlar, dastlabki bahorgi gullar, kuzda qiyg'os gullaydigan gulxonadagi dekorativ o'simliklar, xonadagi manzarali o'simliklar, hasharotlar va shu kabilar kiradi.

Tayyorlov guruhida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy vazifasi ularda tabiat olamidagi muhim bog'liqliklar — o'simliklarning kompleks sharoitlarga (namlik, issiqlik, yorug'lik va shu kabilar), hayvonlarning tashqi tuzilishi va hayot tarzi, yashash muhitiga bog'liqligi haqida elementar bilimlarni shakllantirishdir. Bolalar turli mavsumlarda o'simlik va hayvonlar hayotida sodir bo'layotgan doimiy takrorlanuvchi o'zgarishlar, ularning o'sish va rivojlanishining asosiy davrlari bilan tanishadilar.

O'simliklar dunyosi haqidagi bilimlar mazmuniga ularni ko'paytirishning ba'zi usullari haqidagi bilimlar kiritiladi. Bolalar narsalarning muhim, umumiy belgilarini ularning o'zgaruvchanligiga ko'ra bilishlari kerak. Shunga ko'ra o'simlik va hayvonlarni tanlashda faqatgina tuzilishlarining xilma-xilligiga emas, balki muhitning ma'lum sharoitlarga moslashganligiga ham e'tibor beriladi. Bolalar o'simliklarni sug'orish (suvning miqdori va sug'orishning takrorlanishi) o'simlikning tabiatdagi yashash muhitiga (tropik botqoqliklar va soy, changalzorlar, quruq cho'l va dashtlar), shuningdek, yil fasllariga bog'liqligini anglab olishlari uchun jonli tabiat burchagiga, yilning 10 oyi davomida juda nam tuproqda o'sadigan papirusni, suvni kam talab qiladigan va onda-sonda sug'oriladigan *kaktusni* (1–2 turini), namga ehtiyoji katta bo'lgan *pirimula*, *tradiskantsiyani* hamda o'rtacha sug'orishni talab qiladigan *uzambarg gunafshasini* qo'yish zarur. Qishda ko'pgina subtropik o'simliklar sug'orishni uncha ko'p talab qilmaydi. Tabiat burchagidagi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini tabiiy sharoitdagi o'sish sharoitlari bilan aloqasi haqida boshqa o'simliklar ham, ayniqsa liliya va amarillis oilasiga taalluqli bo'lgan — *amarillis*, *kliviya*, *krinum*, *dratsena*, *gemantus* va shu kabilar dalolat beradi. Mazkur o'simliklar uchun qishning birinchi davri — tinchlik davri bo'lib, bu vaqtda sug'orish deyarli to'xtatiladi. Xona o'simliklarini ko'paytirish usullari xilma-xildir: *yorongul*, *begoniyareks*, *sansevyera* va *boshqalar* novdalaridan, *aspidistra*, *asparagus* va shu kabilar butoqchalaridan ko'paytiriladi. «Tirik tug'iluvchi» o'simliklardan — *toshyorar*, *xlorofitum*, *briofillyum* bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Akvariumdagi baliqlar ham (ularning 23 turi bo'lishi kerak) mahalliy suv havzalaridagi issiqsevar baliqlardir. Bu guruhlarining har biri, garchi unchalik murakkab bo'lmasada, boqishda alohida sharoit talab qiladi. Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagida tutqunlikda bola ochadigan qushlarni, yozda esa maydonchada tovuq, o'rdaklarni (mahalliy sharoitga ko'ra) bosqish maqsadga muvofiqdir. Sutmizuvchilardan tabiat burchagida istalgan jonivor, ayniqsa hayot tarzi mavsumga muvofiq o'zgaradiganlarini (tipratikan, olmaxon), bog'cha hovlilarida esa katta bolalar quyonlarni parvarishlab boqishlari mumkin.

Tabiat burchagidagi xona o'simliklarini saqlash ularni sug'orish, purkash, yuvish, tuprog'ini yumshatish, almashtirish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, oziqlantirish, kesish, ko'paytirish, zararkunandalarga qarshi kurashishdan iboratdir.

Suv quyish. O'simlikka xona haroratidagi suv quyiladi. Vodoprovod suvi tarkibidagi xlorni yo'qotish uchun uni ochiq idishda ushlab turiladi. O'simlik rivojlanayotgan va

gullayotgan vaqtda unga xona haroratidan 2°C ortiq bo'lgan suv quyiladi. Agar gultuvak tagida suv yig'ilib qolgan bo'lsa va ikki soat davomida tuvak teshigi orqali shimilib ketmasa, u to'kib tashlanadi.

Purkash. Purkash ko'pgina o'simliklarni parvarish qilishning muhim qismi hisoblanadi. Chunki u o'simlikning suv bilan me'yorida ta'minlanishiga yordam beradi. Purkaganda o'simlik qishda ham xuddi yozdagidek ko'mko'k bo'lib turadi. Iliq suv bilan purkab turilganda o'simlik novdalari va barglari tezroq o'sadi, kurtak chiqaradi.

Yuvish. O'simlikni changdan tozalash uchun iliq suv bilan muntazam yuvib turish lozim. O'simlik dush tagiga yoki tog'oraga qo'yib yuviladi, bunda tuvakdagi tuproq yuvilib ketmasligi uchun uning usti kleyonka bilan yopib qo'yiladi. Tikanli kaktuslarni yuvishdan oldin changlari yumshoq cho'tka bilan tozalanadi. Egilgan bargli o'simliklarni yuvish mumkin emas, ulami changi mayin mo'yqalam bilan tozalanadi. Gultuvaklar yiliga 3—4 marta sovunlab, qaynoq suv bilan qattiq cho'tka yordamida yuviladi.

Yumshatish. Yumshatish — bu suvsiz sug'orishdir. U suv quyilgan kunning ertasiga amalga oshiriladi. O'simlik ildizlariga zarar yetkazmaslik uchun tuvak chetlaridagi tuproq ko'pi bilan 1 — 1,5 sm chuqurlikda yumshatiladi.

Ko'chirib o'tqazish va ko'chat qilish. Ko'chirib o'tqazish — tuvak torlik qilib qolganda o'simlik ildizini yopishib turgan tuproq bilan birgalikda boshqa tuvakka o'tqazishdir. Tuvak tagiga yangi tuproq solinib, o'rtasiga ko'chat o'tqaziladi. Bunda, qolgan tuproq bo'sh joyga solinadi. Ko'chat qilishda esa o'simlik ildiziga yopishib turgan uyum bir oz tozalanadi va eski tuproqni bir qismi olib tashlanadi. Yangi tuvak eskisidan 3—4 sm kattaroq bo'lishi kerak. Ko'chat qilishni bahorda, o'simlik o'sishni boshlamasdan oldin amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'g'itlash. O'simliklarning me'yorida oziqlanishlari uchun ularni o'g'itlab borish zarur. Buning uchun bolalar bog'chasi sharoitida mineral o'g'itlardan foydalangan ma'qul. O'simlik ko'chat qilib o'tqazilgandan so'ng o'sa boshlagach yoki ildiz olgach o'g'itlanadi. O'g'itlashdan bir necha soat oldin o'simlikni yaxshilab sug'orish lozim.

Kesish. O'simlikning chiroyli ko'rinishi va sershoh bo'lishi uchun uning o'sishini muntazam boshqarib turish lozim. Buta hosil qilish maqsadida, yon shoxchalar o'sishi uchun asosiy shoxning uchi qirqiladi, yon shoxchalar 10—15 sm ga yetganda ularning ham uchi qirqiladi. Kesishda o'tkir pichoqdan foydalanilib, kurtak tepasidan qirqiladi va kesilgan joyga maydalangan ko'mir sepiladi. Yorongul, fuksiya, rozan va shu kabilar kesiladi.

Ko'paytirish. Xona o'simliklarini poya va barg qalamchalari, bachkilari, piyozi, butani bo'lish, parvarish qilish va shu kabilar orqali ko'paytirish mumkin.

Qalamchalar yordamida ko'paytirish. Qalamchalar poya va bargdan bo'lishi mumkin. O'simliklarning ko'pchiligi (radeskatsiya, begoniya, fikus, aukuba, xina, pelargoniya) poya qalam chalaridan ko'payadi, bunda o'sib turgan novdadan 23 bo'g'imli novda qirqib olinadi. Pastki kesik shunday bo'g'imning tagida bo'ladi. Qalamcha suvga solib qo'yiladi yoki tuvakka ekiladi, bunda pastki kesik qumga ko'milib turishi kerak. Ekilgan qalamchalar usti oyna bilan yopilib, kuniga 2 marta pulverizator yordamida suv purkab turiladi. Begoniyareks, sansevyera, uzambarg gunafshasi barg qalamchalaridan ko'payadi. Begoniyareksning bargi (pastki tomoni)ni tomirlari tarqalgan joydan lezviya bilan kesiladi va nam qumga o'tqaziladi. Kesilgan joylar qum bilan siqib qo'yiladi.

Piyozdan ko'paytirish. Amaralis, krinum, gemantus, zafirantes piyozdan ko'payadi. Piyoz boshida kurtaklar paydo bo'lib, ulardan piyozchalar o'sib chiqadi. Ko'chat qilinishda ular eski piyozboshdan ehtiyotkorlik bilan ajratilib, tuvakka ekiladi va xuddi piyozbosh singari parvarish qilinadi.

Bachkildan ko'paytirish. Yer ustidan deyarli to'liq shakllangan yosh o'simliklar shaklidagi bachkilarni hosil qiluvchi o'simliklar (toshyorar xlorofitum) juda oson ko'payadi. Bu bachkilar asosiy o'simliklardan qirqib olinib, kichik tuvaklarga o'tqaziladi.

Ildizpoyadan ko'paytirish. Bu usuldan o'simliklarni ko'chat qilib ekishda foydalaniladi. Ildizpoyadagi tuproq silkitib tushiriladi va uni o'tkir pichoq bilan har bir bo'lakda, juda bo'lmaganda 1—2 kurtak yoki nihol va ildiz qoladigan qilib qismlarga ajratiladi. Aspidistra, sansevyera, siperus ildizpoyadan ko'payadi.

Terrarium turlari. Toshbaqa, kaltakesak, baqa, qurbaqalarga mo'ljallangan terrariumlarning tagiga 5—6 sm qalinlikda tuproq va qum solinib, ko'proq qismiga chim o'tqaziladi. 1—2 ta yassi tosh solib qo'yilsa yaxshi bo'ladi. Terrariumdagi «suv havzasi» o'rnini tog'orachadagi suv bajaradi. Agar terrariumda qurbaqa yoki toshbaqa saqlansa, gultuvak parchalaridan uy (yashirinish joylari) yasash lozim. Qishda o'to'lanlardan uzun, ingichka bargli xona o'simliklari, sulii, salat barglari qo'yiladi. Tirik tug'iluvchi kaltakesaklar, baqa, qurbaqalarga mo'ljallangan terrarium toshbaqalar terrariumiga o'xshash bo'ladi: uning tagiga qum solinadi, usti esa o'rmon yo'sini bilan qoplanadi va 12 ta tosh, po'stloqli yo'g'on shox solib qo'yilsa yaxshi bo'ladi. Baqalar uchun tuvak parchalaridan yashirinadigan joy qilinadi. Yo'sin orasiga kichikroq suv havzasi joylanadi. Qishda

aspidistra, plyush, paporotnik o'simliklarini qo'yish maqsadga muvofiqdir. Terrariumga qarash unchalik murakkab emas. Suv vaqti-vaqtida almashtirilib, suv idish muntazam yuvilib turiladi. Bir yilda 2—3 marta terrariumni, undagi tuproq, qum ustini, devorlarini tozalab turish kerak. Terrariumdagi o'simliklar xona o'simliklaridek parvarish qilinadi. Terrariumda yashovchilar past temperaturada harakatchanligini yo'qotadi va ovqat yemay qo'yadi. Bunday hollarda terrariumni elektr lampochkalari bilan isitish lozim. Jonivorlarni 25—30°C haroratda nimrang margantsovka eritmasida, boshini suvga tiqmay, 20—30 soniya cho'miltirish maqsadga muvofiqdir.

Agar jonli tabiat burchagida qurbaqa, baqa, kaltakesaklarning yashashi uchun normal sharoit yaratishning iloji bo'lmasa, hayotini saqlab qolish maqsadida kuzda ularni qo'yib yuborish kerak. Sudralib yuruvchilar hamda suvda va quruqlikda yashovchilar terrariumda saqlanadi. Tayyor terrariumlardan tashqari turli idishlardan, eski akvariumlardan foydalanish mumkin. Ularning ustidan doka yoki mayda metall to'r qoplash kifoyadir. Terrariumlar hayvonlarning biologik xususiyatlariga moslab tayyorlanadi. *Quruqlikda yashovchi toshbaqa.* Toshbaqa salat, qoqio't barglari, sabzi, sholg'om, xom kartoshka bo'laklari bilan boqiladi. U tarvuz po'sti, pomidor, ba'zi mevalarni va nonni yaxshi ko'rib yeydi. Gohgohida qiyma go'sht berish kerak. Bu toshbaqa ozuqani quyoshda yaxshi yeydi. Ozuqa yozda har kuni, qishda 1—2 kun oralatib beriladi. Ozuqa suvli bo'lsa, toshbaqa suv ichmaydi.

Botqoq toshbaqasi go'sht, mayda baliq, chuvalchang, suv shilliq qurti bilan oziqlanadi va ozuqani faqat suvda yeydi.

Takimon. Un qurti, chuvalchang, tirik hasharotlar va ularning lichinkalarini yeydi. Qishda unga chivin g'umbagi, uzun qilib kesilgan xom go'sht beriladi. U suvni yaxshi ko'radi.

Tirik bola tug'adigan kaltakesak takimondan ko'ra maydaroq narsalar (tutgan o'ljalari) bilan oziqlanadi. *Baqa va qurbaqa* tirik ozuqa: hasharotlar, chuvalchanglar, molluskalar hamda xom go'sht bilan boqiladi. Bunda go'shtni tayoqcha uchiga ilib, qurbaqaning ko'zi oldida qirmirlatib turish kerak. Bolalar bog'chasi hovlisidagi qushlarni butun yil davomida kuzatish mumkin. Qushlarni jalb qilish usullaridan biri ularni qishda boqishdir. Kuz fasli yaqinlashgan sari chumchuq, qarg'a, katta chittak, sa'va singari qushlar odamlar yashaydigan joylar yaqiniga uchib kela boshlaydi. Xuddi mana shu vaqtlarda hovlida donxo'rak va uyalarni o'rnata boshlash kerak. Eng oddiy donxo'rak —

don tokchasi (hajmi 50x60 sm, chetlari bir oz ko'tarilgan taxta). Uni daraxtga, deraza, yog'ochga osib qo'yish mumkin. Qushlarni derazadan boqishda ularni xonada ko'rib turish imkonini beradigan donxo'raklar qulaydir. Qushlar bu vaqtda o'zlari yaxshi ko'rinib tursalarda, kuzatilayotganliklarini sezmaydilar. Bunday donxo'rakni bir litrlik shisha bankadan qilish mumkin. Yonboshlatib ayvon panjarasiga bog'lab qo'yilgan bunday shisha banka deraza donxo'raki o'rnida qollaniladi.

Qushlar o'ziga xilma-xildir. Bu yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar — qayin, otquloq urug'i va mevalaridir. Qovoq, tarvuz, pista urug'lari ham qushlar uchun yaxshi ozuqadir. Bu ozuqalarni katta chittak sevib yeydi. Chittaklarni qishdagi sevimli ozuqalari — tuzlangan yog'dir. Qushlar oq non ushoqlarini ham yaxshi ko'rib yeydilar.

Sun'iy inlar. Hovlida sun'iy inlarni ommaviy osish chittak, chug'urchuq, hasharotxo'r kabi qushlarni jalb qilishda yaxshi natijalar beradi.

Chittak va chug'urchuq uchun inlar ko'pincha taxtadan tayyorlanadi. Inning olchami uch ko'rsatkich bilan: tubining maydoni, chuqurligi (tagidan tuynugigacha bo'lgan oraliq) va tuynugining olchamiga ko'ra aniqlanadi. Chug'urchuqlar inining eng qulay o'lchami — 14x14 sm, hasharotxo'rlarga — 9x9 sm, chittaklarga esa — 12*12 sm dir. Chittak va chuqurchuqlarga in yasashda taxtaning qalinligi 1,5 sm yoki yaxshisi 0,5 sm bo'lgani ma'qul. Inni fanerdan yasash yaramaydi. Yaxshi inlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: in mustahkam qoqilishi, teshiklar qoldirmasligi, tayyorlash usuli sodda. Taxtalarning faqat tashqi tomonini ranglash lozim, chunki ichki tomoni ranglansa, qushning silliq devordan chiqishi qiyin bo'ladi. Tuynuk in tomiga yaqin bolishi zarur. Bu oraliq taxminan tuynuk diametriga teng.

Inning tuynugi dumaloq, tomi esa olinadigan qilinadi. Qushlar inga yaxshi joylashishlari uchun ularni to'g'ri osish muhimdir. Inlar yoz va kuz faslida osiladi. Qushlar uchun inlar juda zarur, chunki qishlovchi qushlar sovuq tunda shu yerda jon saqlaydilar. In tuynugining yo'nalishi turli qushlar uchun turlichadir.

2.4. Tajriba sinov ishlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda bolalarning kunlik faoliyatini tabiat burchagidagi amaliy faoliyati bilan bog`ladik. Pedagogik tajriba Jizzax shaharidagi XTBga qarashli «Xumo» qarashli №29 bolalar bog`chasida o`tkazdik.

Birinchi bosqich aniqlovchi bosqich bo`lib, mavzuga ta`luqli adabiyotlar o`rganildi va tahlil qilindi hamda «Xumo» maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishga qaratilgan ishlar, ya'ni mavjud ahvolni o`rganishda qaratilgan maqsadli ishlar olib borildi. Amaldagi holatni kuzatish, o`rganish ishlarini olib borishda tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda tuzilgan savol –javoblardan anketa so`rovlardan, suhbat kabi usullaridan foydalandik.

Oldindan qilingan ishlar shuni ko`rsatadiki, maktabgacha muassasalarida katta va tayyorlov bolalarini tabiat bilan tanishtirish va ekologik tarbiya berishda mashg`ulotlar jarayonida olib borilgan.

Tabiat burchagi faqat o`simliklardan tashkil qilingan o`simliklarni parvarish qilishni bog`cha tarbiyachisi nazorat qiladi va parvarishlaydi.

Biz bog`cha ma'muriyati, tarbiyachilari, metodistlari va ota –onalar yordamida, tayyorlv guruhida o`simliklar, akvarium va terrariumda yashovchi hayvonlardan tashkil topgan tabiat burchagini tashkil qildik. Tabiat burchagiga «Tabiatim - hayotim» deb nom berdik. Davlat talablari tayyorlov guruhida tabiat burchagida quyidagi o`simlik va hayvon jonivorlarni keltirdik.

O`simliklardan chiroqning kaktus, gunafsha, xitoy atirguli, fuktsiya, doimiy gullovchi begoniya;

baliqlar, tilla baliq;

tilla baliq turlaridan veallexvost, teleskop, me'yasin skalyariy;

qushlar, taram –taram to`ti qush;

hayvonot olami, tipratikan, toshpaqa.

O`simliklarni bolalar bilan tuvaklarga ekib, ularga yorug` va keng joy tanladik. Bolalar o`zlari ekan gullar tuvaklariga rasmini yopishtirib, rasm ustuni klyonka bilan qopladik.

Akvarium va terrariumdagi jonivorlarga ham guruh bolalarini 2 tadan har kuni parvarishlash uchun navbatchilik ro`yxatini tuzdik.

Endi bolalar faqat mashgʻulot vaqtida emas, balki kunlik faoliyat davomida ham oʻzlari ekan gulni yoki akvarium va terrariumdagi parvarishlash ishlari bilan mashgʻul boʻldilar.

Parvarish vaqtida tabiat burchagidagi ishlar va ulardagi oʻsimlik va hayvon jonivorlardagi oʻzgarishlar va qiziq voqealar haqida tarbiyachiga va oʻzaro suhbatlar boʻldi.

Natijada bolalar bogʻchaga kelib darrov gul va hayvon jonivorlardan xabar oladigan boʻldilar. Ularning xayoti bilan qiziqishlari ortib bordi.

Bolalarning kunlik faoliyati ham sermazmun va koʻtarinki kayfiyat bilan oʻtdi.

Yuqoridagi tadqiqot boshidagi savol –javoblardan va anketa soʻrovlari suhbat usullaridan ikkita guruhdan yana javoblar olganimizda quyidagi natijalarga erishdik va ikkalasini solishtirdik.

№	Mezonlar	Tajribagacha		Tajribadan keyin	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	Tabiat burchagida oʻsimliklar haqida maʼlumotlarni bilishi.	25%	25%	27%	30%
2.	Akvariumda yashovchilarni parvarish qilish.	15%	15%	17%	28%
3.	Terrariumda yashovchi jonivorlar haqida maʼlumotlar.	18%	18%	18%	29%
	Jami:	58%	58%	62%	87%

Natija 58% Ish boshidagi koʻrsatkich 87% ga koʻtarildi.

XULOSA

Xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular asosan xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlarda va qur'oni karim hamda payg'ambarimizning hadislarida o'z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining hozirgacha yashovchanligi asosan og'zaki tarzda bo'lib, har bir avlod unga o'z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo'shgan holda bizgacha etib kelgan.

Xalq pedagogikasida tarbiyaning birlamchi, ikkilamchisi bo'lmaydi. Hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chekkadan qolmasligi, ayni chog'da tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, etti o'lchab bir kesishga amal qilinadi. Shuningdek, xalq tarbiyasida kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutiladi, ya'ni tarbiyani o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga etishlik, kelajakka umid asnosida olib boriladi. Unda hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-hodisa, predmet, ko'rinish qisqasi jonli jonsiz neki bor undan mukammal foydalanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ekologik tarbiya berish quyi usullarda olib boriladi:

1. Ko'rgazmali (kuzatish, rasmlar ko'rish, diafilmlar namoyish eish).
2. Amaliy (o'yin tarzida)
3. Og'zaki (hikoya, tushuntirib berish, badiiy asarlarni o'qib berish).

Ko'rgazmali metod. Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik, hayvonlar, ob –havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish asosida tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg'ulotda, sayrda, ekskuriyada, tabiat burchaklarida olib boriladi. Uni bolalar amaliy faoliyat bilan qo'shib olib borsalar yaxshi natijaga erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasida foydalaniladigan diafilmlar MTM ta'lim – tarbiya dasturi asosida ishlab chiqilgan. Diafilm tarbiyachiga dastur mazmunini ma'lum sistema asosida bolalarga qiziqarli qilib etkazishga yordam beradi.

Oynayi jahon orqali beriladigan «U kim, bu nima?» ko'rsatuvi, radio orqali beriladigan «Ertaklar olamiga sayohat» o'yin –eshittirishi orqali bolalar u yoki bu o'lkaning tabiati, hayvonot olami, xalqlarning urf –odati bilan tanishadilar. Axloqiy sifatleri tarbiyalanadi. Ularda namoyish etilgan teleko'rsatuvlar orqali tabiatda yuz berayotgan jarayonlar, o'simlik, hayvonatlar olami to'g'risida to'laqonli tasavvur hosil bo'ladi.

Amaliy metod: Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tabiiy materiallar bilan o`ynaladigan didaktik o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun meva – sabzavotlar, daraxt novdalari, xona gullaridan foydalanish mumkin. Bolalarni o`simliklar bilan tanishtirishda quyidagi o`yinlardan foydalanish mumkin:

«O`simliklarni nomiga qarab top», «Bargiga qarab top», «Ta'riflangan o`simlik yoki mevani top» va h.k.

Og`zaki metod: Bolalarga ekologik tarbiya berishda tarbiyachining tushuntirishi, hikoya qilib berishi, xalq maqolalaridan, masallaridan foydalanishi, suhbat kabi og`zaki metodlarning o`rni kattadir. Tabiatning faol himoyachilarini tarbiyalash uchun maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan quyidagi yo`nalishlarda ish olib boriladi:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga tabiat olami, undagi voqea – hodisalar o`rtasidagi bog`liqlik to`g`risida aniq bilimlar berish.
2. Bolalarda tabiat, uni asrab –avaylash, uning boyliklarini oshirishga oid faoliyatni shakllantirish.
3. Bolalarni respublikamizning tabiatini qo`riqlash, uni asrab –avaylash bo`yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirish.

Maqsad: Bolalarning o`simlik va hayvonlarni himoya qilish, hamda ularning barchasi kishilarning yordamiga, g`amxo`rligiga muhtojligi haqidagi tasavvurlarini aniqlash. O`simlik, hayvonlar haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash, hayvonot va o`simliklar dunyosini ehtiyot qilish zarurligini tushuntirish.

Suhbat uchun kerakli materiallar.tabiat haqidagi, qo`riqxona haqidagi rasmlar.

Suhbatning borishi. Suhbatni quyidagi savollar bilan boshlash mumkin: biz xiyobonni nega sevamiz? O`rmon, dalani –chi? Daryoni –chi? O`simliklarning o`sishi uchun nimalar kerak? Bolalar o`rmonda o`zlarini qanday tutishlari kerak? Biz qushlarga qanday g`amxo`rlik qildik?

Keyin respublikamizning bosho`a erlaridagi yovvoyi hayvonlar, parrandalar va hayvonlarni asrash haqida so`zlab berish, bolalar bilan rasmlar ko`rish mumkin.

Tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o`simlik va hayvonlarga – amxhrlilikni tarbiyalash va shgular orqali tabiatga qiziqish, vatanparvarlik mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko`paytiruvchi kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati katta. Tabiat burchagining muhim toomni yana shundaki uni bolalar har kuni ko`radilar. Tarbiyachi

rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o`simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib boradilar. Natijada o`simlik va hayvonlar dunyosining rang – barangligi, ularning o`shishi, rivojlanishi, ular uchun qanday sharoit kerakligi to`g`risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab boradilar. Tarbiyachi bolalarda solishtirish malakasini shakllantiradi. Hayvon va o`simliklarni bir –biri bilan solishtirish orqali ular o`rtasidagi umumiylik va farqlarni, ularga xos belgi va xususiyatlarni bilib oladilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini o`simliklarning chiroyli gullashiga, barglarning shakli va tusiga akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko`rinishi va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go`zalliklarni ko`zlari bilan ko`rib, qablari bilan his etadilar, ularning estetik didi o`sadi. Bolalar tabiat burchagidagi o`simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida tabiatga ehtiyotkorlik munosabatlari shakllanadi. Ularda tabiatni yanada gullab yashnashi uchun o`z hissasini qo`shish, bundan tashqari qo`ldan kelgan mehnati bilan bu jarayonda qatnashish xohishini uyg`otadi.

Tadqiqot muammosi bo`yicha mavjud holatni nazariy va amaliy jihatdan o`rganish, shuningdek tadqiqot darajasida olib brrilgan tajriba sinov ishlarining ilmiy ko`rinishi va natijalariga tayangan holda ko`zlangan maqsadni amalga oshirish yo`lida quyidagi muammolar mavjudligi ma'lum bo`ldi.

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarining rahbarlari hamda mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar tomonidan maktabgacha yoshdagi boalalarni taibat bilan tanishtirishda mashg`ulotlardan foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilmasligi.

2. maktabgacha yoshdagi boalalarda ularning milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda tabiat bilan tanishtirish elementlarini shakllantirishga yo`naltirilgan zamonaviy o`quv metodik adabiyotlar, tavsiyalarning ishlab chiqilganligi.

Ma'lumki ijtimoiy hayot yoki muayyan faoliyat yo`nalishlarida yuzaga kelgan muammolar o`z vaqtida tezkorlik bilan hal etilishi lozim. Anna shu maqsada bartaraf etish chora tadbirlarini belgilashga urinib ko`rdik. Natijada mavjud muammolarni zal etish yo`llarini ularning mohiyati asosida belgilash maqsadga muvofiq ekanligini ko`rsatadi. Shu bois maktabgach ayoshdagi bolalarni tibat Bilan tanishtirish elementlarini shakllantirish borasidagi muammolarni barataraf etish chora tadbirlarini quyidagilardan iboratlashi ayon bo`ldi.

Olib borilgan tadqiqot ishlarning natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Tajriba sinov natijalari orqali ilgari surilgan ilmiy fazar o`z tasdig`ini topdi va bolalarda tibot Bilan tanishtirish elementlarini shakllantirishning pedagogik tizimi yaratildi.

2. Pedagogik –psixologik, metodik adabiyotlarni o`rganish va tahlil qilish orqali bolalarda tibot Bilan tanishtirish elementlarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqildi.

3. Amalda qo`llanib kelinayotgan tayanya dasturida tabiat Bilan tanishtirish yo`nalishi, ular asosida o`tiladigan mashg`ulotlar metodik jihatdan to`g`ri taqsimlanganligi va pedagogik tizimda amal qilmaganligi tufayli belgilashga urinib ko`rdik. Natijasi mavjud muammolarni hal etish yo`llarini ularning mohimiyati asosida beligilash maqsadga muvofiq ekanligini ko`rsatadi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat Bilan tanishtirish elementlarini shakllantirish borasidagi muammolarni bartaraf etish chora tadbirlarini quyidagilardan iboratligi ayon blo`di.

Olib borilgan tadqiqot ishlarning natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Tajriba sinov ishlari orqali ilgari surilgan ilmiy fazar o`z tasdig`ini topdi va bolalarda tabiat bilan tanishtirish elementlarini shakllantirishning pedagogik tizimi yaratildi.

2. Pedagogik –psixologik, metodik adabiyotlarni o`rganish va tahlil qilish orqali bolalarda tabiat bilan tanishtirish elementlarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqildi.

3. Amalda qo`llanib kelinayotgan tayanch dasturida tabiat bilan tanishtirish yo`nalishi, elar asosida o`tiladigan mashg`ulotlar metodik jihatdan to`g`ri taqsimlanganligi va pedagogik tizimda amal qilinmaganligi tufayli pedagoglar orasida bu foaliyat turi bo`yicha ishlarni to`g`ri olib bormaslik holalari aniqlandi. Biz ana shu masalaning echimi o`z ilmiy tadqiqotimiz davomida ochishga qaratdik. Ya'ni tabiat bilan tanishtirish faoliyati turkumiga kiruvchi mashg`ulotlarni olib borishda quyidagi talablarga rioya qilish ya'ni ta'lim mazunini bolalarning yosh hususiyatlari idroki qiziqishlariga mos bo`lishi nazariy va Amaliy ishlarning o`zaro bog`liq holda borilishi ta'lim jarayonini tarbiyalash va rivojlantirish Bilan qo`shib olib borish.

Mashg`ulotni borliq, atrofdagi go`zallikni ko`rish va tushinish bilan bog`liq mashg`ulotlar jarayonida ishlarni soddadan murakkabga qarab rejalashtirish.

6. Bolalar bilan o`tiladigan mashg`ulotlar jarayoniga o`yin vaziyatlarini olib kirish interfaol usullardan foydalanish va ishlarni o`aro musobaqa tarzida tashkil eish orqali ularning qiziqishini faolligini oshirishga erishish.

7. Olib borilgan tajriba sinov ishlari shuni ko`rsatidiki, tanlagan materiallar bolalarda emotsional hususiyatlar uyg`otadi va bolalarning tabiat Bilan tanishtirishda olgan bilimlarini rivojlantirishda yaxshi natijalar berdi. Bu uchun Mashg`ulotlar mazmuni tuzilishi, tashkil etish usullari orqali bolalarda qiziqish uyg`otish lozim.

Bitiruv malakaviy ishi hulosalari quyidagi tavsiyalar berish imkonini beradi.

1. Maktabgacha ta'lim uchun yaratilgan davlat talablarini takomillashgan variantini ishlab chiqi shva tasdiqlash.

2. Tarbiyachilarni o`z vaqtida malaka oshirish kursida ta'lim olishlarini ta'minlash malaka oshirishdan so`ng esa hisobotlarini tinglash va o`rganib kelgan yangiliklarini jamoa bilan o`rtoqlashish.

3. Viloyat, tuman maktabgacha ta'lim muassasalari avvalo O`zbekiston hududida nashr etilgan jurnallarga qo`shimcha ravishda yaqin horij mamlakatlarida nashr etilayotgan jurnal va metodik adabiyotlar Bilan ta'minlanishiga e'tibor kuchaytirish.

Bolalarni tabiat Bilan tanishtirish muammosi katta ishning bir bo`lagi bo`lib kelgusida O`zbekiston sharoitida maktabgacha ta'limning barcha yosh guruqlari uchun tabiat Bilan tanishtirishning mazmuni pedagogik –psixologik asoslarini ishlab chiqish bo`ycha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarga asos bo`lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch». Toshkent.: -2008 y
2. Karimov I.A. «O`zbekistonning o`z istiqloq va taraqqiyot yo`li» T.: O`zbekiston. 1992 y
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori: Prezident. I.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi sessiyasida so`zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust. G`.G`.Barkamol avlod –O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997 y
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. G`.G` barkamol avlod –O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997
5. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. T.:G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1996y
6. Bogataeva Z.A. Applikatsiya po motivam narodnogo ornamenta v detskom sadu. M.Prosveodenie. 1982 g
7. Bolalar bog`chasida estetik tarbiya (N.A.Vetlegina tahriri ostida) T.: O`qituvchi, 1981y
8. Bulatov S.S. Amaliy san'at qisqacha san'at lug`ati. T.:1992y
9. Bulatov S.S. O`zbek xalqi. Amaliy bezak san'ati. T.: Mehnat. -1991y
10. Volkova A.A. risovanie v mladshey gruppe dastkogo sada. Posobie dlya vospitateley. M.: 1992y
11. Gusanova M.A. Applikatsiya. M.: Prosveshenie -1997y
12. Davidchuk A.N. Konstruktshshoe tvorchestva doshkolnika. M. Prosvegtsenie. 1973
13. Jamoldinova O. Katta bog`cha yoshdagi bolalarni xalq hunarmandchiligi vositasida mehnatsevarlikni tarbiyalash. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tashkil etilgan dissertatsiya –T.1997y
14. Ibragimov U.Sh. Formarovanie u studentov fakulteta doshkolnogo vospitaniya pedagogicheskix umeniy po rukovodstvu iz deyatelnosti detey. –Avtoref dis.kond.pel.rauk.M.: 1985y

15. Komenskiy B.G. Velikaya didaktika. Azbr-RedSoch.-M, Uchpedgiz. 1955
16. Kamarova T.S. kak nuchit rebenka risovat. M., 1998y
17. Koney V.A. Kultura i arxitektura pedagogicheskogo prostranstva. G`.G`. Vopros fulosoviy. 1996y
18. Kosterin N.P. Uchebnoe resovanie 2-e. Perenrab-M, Prosveshenie. 1984y
19. Kulturologiya XX vek. Entseklopediya. V.2-x.t. G`.G`. red, sost. devit S.Ya. SRb. Universitetskaya kniga, 1998
20. Kutsakova X.V. Konstruirovaniye i ruchnoy trud v destkom sadu. M. Prosvechenie. 1991y
21. Mavlonova R., Hasanboeva O., Xoliqberdiev. Pedagogika. T., O`qituvchi 2002y
22. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. 2 -qismli. 1-k G`.V.I. loginova, T.G. samarukova taxriri ostida. T. O`qituvchi, 1991 y
23. Maktabgacha ta'lim muassasalari (bolalar bog`chalari) uchun dasturlar 11 – nomada –T., O`zPFITI, 1995 -1996y
24. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyachiga qo`yiladigan davlat talablari G`.G`. Maktabgacha ta'lim jurnali. T., 2000y